

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI O`QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

***O`ZBEK ADABIYOTI O`QITISHNING ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARI FANIDAN***
ma'ruzalar matni

O'zbek adabiyoti o'qitishning zamonaviy texnologiyalari bakalavriat yunalishi bo'yicha yaratilgan mazkur ma'ruzalar matnida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Adabiy ta'limi Konsepsiyasi», «Adabiyotdan davlat ta'lim standarti» talablariga muvofiq talabalar kommunikativ savodxonligini oshirish, adabiyot mashg'ulotlarini yangi pedagogic va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, adabiyot darslarining samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasiga olib chiqish va dars jarayoniga tatbiq etishning usul va vositalari haqida tavsiyalar berildi.

Tuzuvchi:

Pedagogika fanlari nomzodi **H. Suyunov** .
Katta o'qituvchi **M. Barotova**

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari nomzodi **X. Qurbonova**.
O'qituvchi **M. Sattorova**.

O'zbek filologiyasi fakulteti ilmiy-uslubiy kengashning 2008 yil avgustdagi 1-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mavzu: KIRISH. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MA'NAVIY BARKAMOLLIK

Reja:

1. Ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining asosi.
2. Adabiyot o'qitishda milliy istiqlol g'oyasi va ta'lim tarbiya
3. Ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasida adabiyot fanining o'rni.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq» 1998
2. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. –T. «Sharq»1999
3. Mirqosimova M. Adabiy ta'lim metodikasi. –T. 1993
4. Adabiyot o'qitish metodikasi (tuzuvchilar. Q.Yo'ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.
5. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent. «O'qituvchi» 1990 yil.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent «Yangi asr avlodi», - 2006

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

(«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan)

Jamiyatimizning har bir fuqarosi XXI asr bo'sag'asida turar ekan, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabxalarini belgilab olishga o'rinishi tabiiydir. Jumladan, xalq ta'limi soxasida faoliyat ko'rsatayotganlar ham bundan mustasno emas.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'lim tushunchasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib kuyidagicha ta'riflaydi: “Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. usib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati o'zluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga utadi“. Ta'kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modeli yaratildi va uning kelajakdagi “portlash effekti“ Yurtboshimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tadbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan o'zviy bog'liq dir. Darvoqe, ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoklari (sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va boshqa) bilan bir qatorda madaniyat soxasiga, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash“ e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim tizimimizda jiddiy yangilanishlar amalga oshmoqda.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zarurati tugildi? An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish qurishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufo'zli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda. Bu bir tomondan.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim fazosida ruy berayotgan tub burilishlar har bir ta'lim muassasasida didaktika soxasini jonlantirishni talab etadi, yangilikni joriy etish yo'li esa har doim murakkab va o'zoq. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, pedagog texnologiya yaqin yillar ichida didaktik yangilikka kirishishning asosiy manbai bo'lib koladi.

Mavzu: ADABIYOT O`QITISHDA YANGI INNOVATSION VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA UNING TAMOYILLARI

Reja:

1. Yangi pedagogik texnologiya haqida
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning ta'lim tizimida joriy qilinishi.
3. Yangi pedagogik texnologiyalarning tamoyillari va adabiy ta'lim.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriylashtirish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq» 1998
2. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. –T. «Sharq», 1999
3. Mirqosimova M. Adabiy ta'lim metodikasi. –T. 1993
4. Adabiyot o'qitish metodikasi (tuzuvchilar. Q.Yo'ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.
5. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent. «O'qituvchi» 1990 yil.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent «Yangi asr avlodi», - 2006
7. <http://www.pedagog.uz>; [www. connect.uz](http://www.connect.uz) : [www. fantexnolog.uz](http://www.fantexnolog.uz)

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya soxasini islox qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabxalarida ruy beradigan "portlash effekti" natijalari ruy-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi,;
- insonning hayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi;

-jamiyatimizning potensial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi .

“Portlash effekti“ sari shijoat bilan qadam tashlash, yo'llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil xal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik “qurol“ va vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar soxasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim soxasida tub burilishlar yo'z beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson o'zviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yyechimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq ?

Dastlab “texnologiya“ tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - “texnos“ (techne) - san'at, hunar va “logos“ (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib “hunar fani“ ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga kuchirish mumkin, ya'ni: PT - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda “texnologiya“ atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: “o'qitish texnologiyasi“, “o'quv jarayoni texnologiyasi“, “ma'lumot texnologiyasi“ va hokazo.

O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U quproq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va “o'qituvchi - pedagogik jarayon - o'quvchi (talaba)“ funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida ko'riladi.

Hozirgi kunda o`qituvchilar metodikani ko`p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo`ladi. Metodika o`quv jarayonini tashkil etish va o`tkazish bo`yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko`zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga kuchirishdir. Misol uchun, gaz qonunlarini tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning sakllanish qonunini fizika kursining elektr bo`limida qo`llash metodikasi va x.k.

PT o`qitish jarayoning o`zaro bog`liq qisimlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta`minlaydi. Yoxud PT o`qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta`limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig`indisidir. Texnologiya o`zining egiluvchanligi, natijalarning turgunligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma`lum vaqt davomida PT o`quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70- yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan “o`qitish texnologiyasi - bu o`qitishning maqbulligini ta`minlovchi yo`l-yuriqlar tizimi bilan bog`liq bilimlar soxasi” ekanligi e`tirof etiladi (32, 126).

PTni fan sifatida e`tirof etish K.K.Selevko tomonidan ham ma`qullandi: “Pedagogik texnologiya o`qitishning birmuncha oqilona yo`llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham (ta`kid bizniki - N.S.) , ta`limda qo`llaniladigan usullar, prinsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o`qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir” (24,15). Olimning ta`kidlashicha “pedagogik texnologiya” tushunchasi ta`lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlatiladi:

1) Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik , umumtarbiyaviy) texnologiya ma`lum mintaqada , o`quv yurtida , ma`lum o`qitish bosqichida yaxlit ta`lim jarayonini tavsiflaydi.

2) Xususiy metodik (predmetli) daraja: xusuiy predmetli PT “xususiy metodika” ma`nosida qo`llaniladi, ya`ni ta`lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig`indisi sifatida bir predmet. sinf, o`qituvchi doirasida qo`llaniladi (fanlarni o`qitish metodikasi , o`qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

3) Lokal (modulli) daraja : lokal texnologiya o`zida o`quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar yenchimini o`zida mujassamlashtiradi (alohida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa).

I.Ya.Lernerning fikricha, PT - “o`quvchilar harakatlarida aks etgan o`qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi” (13).

Qator yillar davomida PT nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog`liq bulmagan holda urganilib kelindi. Natijada o`qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o`quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg`or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko`tarila olmay asta-sekinlik bilan o`z mavqeini

yuqotib pedagogika fanidan o'zoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lgan "Dasturli ta'lim" (Programmirovannoe obuchenie) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi "Shatalovchilik harakat"ini eslash kifoya.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi PTning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi PT pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu soxadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Darvoqe, PTga "yangi" so'zini qushib ishlatilishi nazariyachi olimlar va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. Shunday ekan, "yangi PT" nimani anglatadi? Bu savolning yechimini izohlashga harakat qilamiz.

Birinchidan, PT ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud bo'ladi. Bu tizimga o'zluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. "Maqsad" esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayrlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni: "o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilanadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, qishloq xo'jaligi, elektron, axborot va boshqa) kirib kelmoqda. Ruy berayotgan sifatli o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda "o'rganish"ning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari romiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizuallari vositalar mavjudki, ular yangi PTni real voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi quyilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy soxalarda tub isloxatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya soxasining islox qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan o'zoq yillar davomida yaratilgan tarbiyashunoslik tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Shurolar to'zumi davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham kommunistiq mafkura qobig'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet mamlakat g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinadi va rad etiladi. Holbuki har qanday g'oya ham o'zida ma'lum ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan holi emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham burjua didaktikasiga tegishli yo'nalish sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot ob'ektiga aylantirish iloji yo'q edi.

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan soxalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tadbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda "kadrlar tayyorlash soxasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ruyobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi".

30-yillarda "pedagogik texnika" tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jixozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961-yildan boshlab AKShda "Pedagogik texnologiya" (Edusational Tyehnology), 1964 yildan Angliyada "Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim" (Tyehnology and pragrammed Learning), Yaponiyada esa 1965-yildan "Pedagogik texnologiya" (Edusational Tyehnology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971-yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining uta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar to'zildi. Misol uchun, 1967-yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National souncil for Edusational Tyehnology) tashkil etildi va 1970-yildan boshlab "Pedagogik texnologiya jurnali" (Jornal of Edusational Tyehnology) chiqa boshladi. AQShning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971-yilda maxsus "Kommunikatsiya va texnologiya Assosiatsiya"si (Assosiatsion for Edusational Communitations and Tyehnology) faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan "Pedagogik texnologiya soxasidagi tadqiqotlar" (Edusational Tyehnology Reslarch) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Umumyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Tyehnologu Centers) to'zilib, bu soxada xalqaro aloqalar urnatish ishlari bilan mashxur.

Didaktikaning bu yo`nalishiga e`tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o`tkazilgan qator xalqaro konferensilar tasdiklaydi. Shunday xalqaro konferensiyalar 1966-yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o`tkazilib kelinadi va anjuman materiallari “Pedagogik texnologiya jihatlari” (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi.

Shu kabi ma`lumotlarni keltirishni g`arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, Biroq 1-rasm bunga ehtiyoj qoldirmaydi. Yuqoridagilarning o`zi yo`q PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti soxasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo`nalish sifatida shakllanganligini ta`kidlab turibdi. Tahlillarning ko`rsatishicha, bu davrda PT ikki yo`nalishda muhokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi - o`quv jarayoniga texnik vositalarini qo`llash bilan bog`liq bo`lsa (shu jumladan dasturli ta`limning texnik vositalari), ikkinchisi - o`qitish texnologiyasi masalalarini, ya`ni o`quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta`lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo`lgan keng doiradagi muammolarni kamrab oladi. Shu yerda birinchi konferensiya materiallari (1966 yil) to`plamning kirish maqolasida yozilgan juda muhim dalilni keltirish o`rinlidir: “ikki tushuncha - “pedagogika“ va “texnologiya“ larni qushish mantiqi tortishuvlarga sabab bulayapti. Chunki “texnologiya“ so`zi sinf xonasiga texnikani kiritish va “degumanizatsiya“ (insonparvarlikdan voz kechish) g`oyasi bilan tavsiflanishi pedagogik kasb vakillarini chuchitishi mumkin“. Albatta, bu fikr ma`lum darajada tugri bo`lishi mumkin. Biroq texnokratik fikrlash (texnikaning inson va uning qadriyatlari ustidan ustunligi) fanda qoralanadi yoki inson xech qachon “temir mashina“ga tobe bo`lmaydi, balki uni o`z aql- zakovati bilan yaratadi va boshqaradi. Bu muammoning psixologik jihatlari bo`lib kam urganilgan soxa.

70-yillarning boshiga kelib o`quv jixozlarining turli xillarini va o`qitishning predmetli vositalarini loyihalash va ishlab chiqarishni yo`lga quyish zaruriy shartlardan biriga aylandi, ularsiz ilg`or metodika va o`qitish shakllari samarasiz bo`lishi, ta`lim sifatiga erishib bulmasligi anglab etildi. Shu boisdan davlatlarda ham bu soxada ma`lum xajmdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1965-yilda sobiq Rossiya Pedagogika Fanlari Akademiyasida “O`quv jixozlari va o`qitishning texnik vositalari“ ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi va hozir ham Rossiya ta`lim akademiyasi instituti sifatida faoliyat ko`rsatayapti. 1973- yilda Vengriyada “O`qish texnologiyasi Davlat Markazi“ bevosita YUNESKO tashabbusi va dasturi asosida tashkil etildi va uning asosiy vazifasi o`qitish texnologiyasining yangi qirralarini kashf etish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo`yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalardan iborat bo`ldi.

Shunday qilib, 1972-yilning kech ko`zida Buyuk Britaniya va Fransiya kitob dukonlarida “Yashash uchun o`qish. Dunyo tarbiyasi bugun va ertaga“ (Learning to be The world of education today and tomorrow) kitobi paydo bo`ldi. Bu voqeaga roppa-rosa 27 yil vaqt utgan bo`lsa-da, ma`ruzaning asosiy g`oyalarini eslash foydadan holi bo`lmaydi. Boz ustiga bu kitob boshqalari kabi mamlakatimiz keng auditoriyasiga kirib kelmadi, kutubxonalarimiz boyligiga aylanmagan.

PTning ikkinchi yo`nalishi - nazariy-didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSh va Angliyada tadqiqot ob`ektiga aylandi. Chunki “texnologiya“ so`zi keng

ma'noda nazariy bilimlarni amaliyot maqsadiga kuchirish, bu kuchirishning aniq yo'llarini ishlab chiqish zarurati e'tirof etildi.

XXI asrga qadam quyish arafasida G.K.Selevko tomonidan PTga oid yirik metodologik asar - o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltiriladi (24). Olim PTLarni un ikki turga ajratadi:

1. Qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik; xususiy predmetli; lokalli, modulli, tor pedagogik).

2. Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik, metofizik, insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistensializm, ssionizm).

3. Ruhiy rivojlantirishning yetakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).

4. O'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha (assosativ-reflektorli, rivojlantiruvchi, bexavioristik, geshtalttexnologiya, suggestiv, neyrolingvistik).

5. Shaxs to'zulmasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (informatsion, operatsion, hayajonli - badiiy , hayajonli - axloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evrestik va amaliy).

6. Mazmuni va tuzulish xarakteri bo'yicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turlicha soxaviy texnologiyalar, xususiy predmetli hamda monotexnologiyalar, politexnologiyalar).

7. Tashkiliy shakllar bo'yicha (sinf - dars, muqobilli, akademik, yakka tartibli, guruhli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqalashtirilgan ta'lim).

8. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali klassik o'qitish; audiovizualli texnik vositalar yordamida o'qish ; "maslaxatchi tizim"; kitob yordamida o'qitish; "kichik guruh" tizimi ; kompyuterli o'qitish; "repetitor" tizimi; "dasturli ta'lim" - V.P.Bespalko).

9. Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, didaktosentrik, shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).

10. Ustuvor metodlar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish - ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy; dasturli ta'lim, dialogli , uyinli ta'lim, o'z-o'zini o'qitish ta'limi, informatsion ta'lim).

11. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida; o'quv materiallarni metodik va didaktik rekonstruksiyalash asosida; tabiatan monandlik, mukobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi).

12. Taxsil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, to'ldiruvchi; o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari).

Mavzu: Adabiyot darslarini tashkil etishda o`yin texnologiyasi

Reja:

1. Adabiy ta`limda o`yin texnologiyalarining o`rni va ahamiyati.
2. O`yin turlari va ulardan foydalanish texnologiyasi.
3. O`yin texnologiyalari asosida adabiyot darslarini tashkil etish.

Adabiyotlar:

1. Innovacion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradiligini oshirish yo`llari. Tuzuvchi: R.Ishmuxammedov. Toshkent, 2003. 3-11-betlar.
2. K.Usmonova. Adabiy ta`limda ilg`or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2004, 3-13-betlar.
3. D.Abdurazzokova. Interfaol usullardan foydalanish. Toshkent, 2005, 3-9-betlar.
4. El`konin D.B. Psixologiya igriu. Moskva. Pedagogika. 1978.

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o`tkazish, undagi yangi mazmunni o`quvchilarga to`larok etkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo`lib xizmat kiladi.

O`qituvchilardan ham dars samaradorligi oshiradigan, o`quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo`llash talab etilmokda. Bunday talablarga asosan o`quvchilarda o`zaro rakobatni o`rnatish uchun adabiyot darslarida **o`yin mashg`ulotlaridan** foydalanish maksadga muvofikdir.

Chunki o`yin texnologiyasi o`quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo`lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiy ta`limda asosiy faollik o`qituvchining o`zida mujassam bo`lishi kerak. Shundagina o`quvchilar orasidagi faollikni ta`minlay oladi.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishda turli xil o`yinlardan samarali foydalanishga alohida e`tibor berilmokda. Bugungi kunda adabiy ta`lim jarayonida qo`llash nihoyatda kulay bo`lgan bir kator o`yinli texnologiyalar yaratilmokda. O`yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko`nikmalariga aylanishini ta`minlabgina qolmay, balki ta`lim oluvchilarda muayyan axloqiy irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o`z ulushini qo`shadi.

D.B.El`koninning fikriga ko`ra, "Xuddi shu oddiygina o`yin orqali o`sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi"¹. Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o`yin - bu tarakkiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chikadigan konun-koidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

Zakovat o`yini

Bu o`yinni o`tkazishda dastlab auditoriyani o`yinga moslashtirish lozim bo`ladi. O`yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o`quvchilar o`yinda ishtirok etish huquqiga ega bo`ladi. O`yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo`ladi. Qolgan o`quvchilar esa o`yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O`yin uchun mo`ljallangan savollar konvertga joylashtirib ko`yiladi. Guruh sardori savolni olib o`qituvchiga beradi. O`qituvchi savolni o`qib eshittiradi. Javobni aniklash uchun bir dakika vakt ajratiladi. Bu vakt orasida o`yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat kilishadi. Bu o`yinni asosan, yukori sinfda o`tkazish tavsiya etiladi.

Zakovot o`yinlarida asosan, o`rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

¹ Эльконин Д.Б. Психология игръ. Москва. Педагогика. 1978.

9 cinfda Ogahiy hayoti va ijodini o'rganishda bu o'yinni qo'llash va kuyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Savol: Shoir she'rlarida mumtoz adabiyotning kaysi san'at turlaridan foydalangan. Misollar keltiring.

Javob: Ogahiy o'z baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni ko'llab **tanosub** san'tini yaratgan. Masalan:

Ne tong ko'nglum kushi gar etsa maksad oshyonig'a,

Ki, sa'yu shavkdin uchmokda bolu par kilur paydo.

Ogahiy **iyhom** san'ati xususiyatlaridan ham mohirona foydalangan:

Meni bemor o'lar holatga etganda ikki la'lin,

So'rub bildim alarning biri shakar, biri kavsardur.

Savol: Ogahiyning kuyga solingan mashhur g'azali kaysi va uning matla'si kanday?

Javob: "Ustina" radifli g'azali Ogahiyning mashhur g'azallaridan biridir. U ishk mavzusida, vash va izhor uslubida bitilgan yakpora g'azaldir. Bu g'azal tanikli xonandalar (Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoshukurov va b.) tomonidan ko'shik kilib ijro etilgan. Fazal to'kkiz band, o'n sakkiz misradan iborat. Fazalning matla'si:

Mushkin koshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlam uchun "nas" keltirur "nun" e'tibor "sod" ustina.

O'yin shu tarzda davom etadi. Savollarga to'g'ri javob bergan guruh g'olib sanaladi.

6X6X6

Mazkur metodlarning adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lganlaridan yana biri 6X6x6 metodidir. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni okilona shakllantira bilish talab kilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan guruhlarga bo'linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon kilinadi, o'qituvchi guruhning a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil koladi va o'z guruhining mavzu yuzasidan chikargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatini bildiradilar. Shu tarika kiska vakt ichida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil kilinadi va baholanadi.

"To'g'ri top" o'yini uchun ikkita plakat kerak bo'ladi. O'qituvchi birinchi navbatda biror makolning boshlanishini yozib ko'yadi, ikkinchisi esa tartabni o'zgartirgan holda makolning davomini yozib ko'yadi. O'yinni 5 sinflarda "Makollar" mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin.

1. Qari bilganini...

2. Avval o'yla...

3. Otdan tushsa ham...

4. Yaxshi topib gapirar...

5. O'z uying...

1. egardan tushmaydi

2. yomon kopib

3. pari bilmas

4. o'lan to'shaging

5. keyin so'yla

**“Kim biladi?” o`yinida** o`quvchilar ikki guruhga bo`linadi. Birinchi guruh a`zolari biror she`rdan parcha o`qishadi. Ikkinchi guruh a`zolari esa she`rning muallifini aniklashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a`zolari she`r o`qishadi. Birinchi guruhdagilar esa she`r muallifini topishadi. Har bir to`g`ri javob uchun yutukli kartochkalar berishadi. Bu o`yinni xohlagan shoirning lirikasini o`rganishda yoki dars jaryonida o`quvchilarni zeriktirishga yo`l ko`ymaslik, kiziktirish maksadida ham o`tkazish mumkin. Masalan, 9-sinfda Navoiy lirikasini o`rganishda quyidagicha foydalanish mumkin:

1-guruh:

Ul sanamkim, suv yakosinda paritek o`ltirur,
Foyati nozuklikindin suv bila yutsa bo`lur.

2-guruh . Atoiy

Bu gulshan ichra yo`ktur bako guliga sabot,
Ajab saodat erur chiksa yaxshilik bila ot.

1-guruh. Navoiy

O`yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o`yin o`quvchilarda she`riyatga nisbatan qiziqish uyg`otadi. She`riyatga bo`lgan ijodiy yondashuvni o`stiradi, ifodali o`qishga malakalarini oshiradi.

Adabiyot darslarida bunday o`yin texnologiyalarini ko`llash, ulardan foydalanish juda katta samara beradi. O`kuvchilarning bunday darslarda ko`llaniladigan o`yin texnologiyalari orqali dunyoqarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, bilim va ko`nikmalari mustahkamlanadi. eng muhimi, adabiyot darsiga, badiiy adabiyotlarni o`qishga qiziqish kuchayadi.

**“ertaklar olamiga sayohat” o`yini** kuyi sinflarda o`tkaziladi. O`kuvchilar guruhlariga bo`linadi. Mustakil va sinfdan tashkari o`qish soatlarida kanday ertaklar o`qilgan bo`lsa(o`quvchilar tomonidan) ertaklar nomi, kahramonlar ismi yoziladi. Qaysi kator yoki o`quvchi ko`p yozsa engadi.

5-sinfda “ertaklar olamida» ruknida «To`maris» rivoyati, Nazariy ma`lumot: Rivoyat va afsona tushunchalari. «Uch og`a-ini botirlar» ertagi, «Susambil» ertagi. Nazariy ma`lumot: ertaklar va ularning turlari. Sinfdan tashkari o`qish darslarida bu o`yindan foydalanish mumkin.

ertaklar nomi	Qahramonlar nomi
“Sehrli uch so`z” o`zbek adabiy ertagi	Maksudxo`ja, xotini, besh kizi, to`rt o`g`li
Pirimkul Qodirovning “Najot” adabiy ertagi ertagi	Shahzoda Abusaid, podsho Kamolxon, vazir Zuhurbek, Sanobar, Ashur, uch og`ayni botirlar:To`lan botir, O`ktam botir, Kenja botir va boshkalar

O`yin darslari vositasida o`quvchilarni mustakil fikrlashga, ijodkorlikka yo`naltiriladi. O`kuvchi o`zlashtirgan bilim va malakalariga tayanib o`yin darsi vositasida mustakil harakat kiladi, o`kuv topshiriklarini bajaradi. Ko`yilgan

muammolarni echadi. Yukori sinflarda sahna asarlarini rollarga bo`lib o`qish ijro etish vositasida bahri bayt musobakalarini o`tkazish kabi dars shakllaridan foydalanish mumkin.

9-sinfda Zahriddin Muhammad Bobirning lirikasini o`rganishda kuyidagicha bahri-bayt shaklidan foydalanish mumkin.

1-o`quvchi:

Yod etmas emish kishini g`urbatda kishi,
Shod etmas emish ko`ngilni mehnatda kishi,
Ko`nglim bu g`ariblikda shod o`lmadi, oh,
Furbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2-o`quvchi:

Ishkingda ko`ngil xarobdur, men ne kilay?
Hajringda ko`zum purobdur men ne kilay?
Jismim aro pechutobdur, men ne kilay?
Jonimda ko`p izzitobdur, men ne kilay?

Yukori sinflarda, ayniksa, xilma xil asar kahramonlariga xos portret kiyofalarini o`quvchi ko`z o`ngida jonlantirish vositasida u kaysi asar kahramoni ekanini topish o`yinini olib borish mumkin.

Masalan, 8-sinfda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” dostonida kuyidagicha o`yin turidan foydalanish mumkin:

1. U benukson akl timsoli, vazirning o`g`li bo`lib. Davlat ishlarida emas, dunyo ishlarida akl, idrok bilan ish ko`radi. (O`g`dulumish)

2. U takvodor, zohid, davlatning karindoshi kanoat timsoli bo`lib. Foniyl dunyoni o`tkinchi deb biladi. U dunyoviy ishlarning barchasi kerak, u hayotiy zarurat, lekin bu dunyo tuzilishiyo`lida umrini kurbon berish donolik belgisi emas deb biladi. (O`zg`urmish)

O`qituvchi yukoridagi fikrni bayon etib, kim ta`riflanganini so`raydi. O`kuvchilar esa o`qigan asari yuzasidan kimligini eslab topib aytadi.

Ma`lumki akademik licey talabalariga ikkinchi boskichda Boburning hayoti va ijodini o`rganishga alohida e`tibor qaratilgan. Bunday darslarda “Shoh va Shoir” nomi bilan ham o`yin mashg`ulotini uyushtirish mumkin.

Bunda birinchi guruh nomi “Shoh”, ikkinchi guruh nomi “Shoir” deb nomlanadi. Har bir guruhga berilgan nomidan kelib chikib savollar beriladi. “Shoh” guruhiga beriladigan savollar:

1. Boburning avlodlar shajarasini tuzing.
2. Boburning o`z yurtidan bosh olib ketish sabablarini ko`rsating.
3. Boburning Hindistonda amalga oshirgan obodonchilik ishlari.
4. Bobur va Shayboniylxonga kiyosiy tavsif bering.

“Shoir” guruhiga savollar:

1. Bobur kanday devonlar tuzgan?
2. Xazon yafrog`i yanglig` gul yuzing hajrida sarg`ardim,

Ko`rub rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrai zardim
matla`li g`azal tahlili va undagi sarik rangni ifodalash uchun ko`llangan so`z va so`z birikmalarini ifodalab bering.

3. Shoirning takdiri bilan bog`lik bo`lgan ruboiylaridan misollar keltiring va sharhlang.

4. Boburning ijodiy salohiyati va iste'dodiga baho bering.

Cavollar yozilgan kartochkalar o'quvchilarga tarkatiladi. Dars jarayonida o'quvchilar guruhlarining faolligiga qarab baholanadi.

O'yin darslari mustakil fikrlashga, ijodkorlikka, faollikka undaydi. Bunday darslarning fanlararo alokasi hakida to'xtaladigan bo'lsak, u tarix (Qodiriyning "O'tgan kunlar" da XIX asrdagi Buxoro, Qo'kon xonliklari ; tarixiy voqealar, sanalar), geografiya (Boburning "Boburnoma" sidagi geografik joy nomlari), psixologiya (ruhiyat tasviri), mantiq, matematika, tilshunoslik kabi fanlarga chambarchas bog'lik.

Biror bir adabiy asarni o'rganishda, davrlarga sharh berishda, ma'lum asarda kamrab olingan tarixiy voqealarni o'quvchilarga eslatishda, obrazlarni tahlil qilishda tarix faniga murojaat kilinadi. Asardagi ruhiyat tasvirini o'rganishda psixologiyaga, klassik adabiyot namunalarini o'rganishda falsafaga, mantiqqa, badiiy asar matnini tahlil qilishda tilshunoslik faniga murojaat kilinadi. Demak, o'qituvchi fanlararo alokadan foydalanib yozuvchi yashagan davr, kalamga olingan hayotiy hodisalar va inson shaxsi to'g'risida asosli, dalillangan ilmiy hakikatlarga tayanib ish yuritadi.

Tayanch so'zlar:

Texnologiya, inovatsiya, nazariya, ifodali, o'yin, faol, kengaymok, she'riyat, adabiyot, qiziqish, samaradorlik, o'stirmok.

Savol va topshiriqlar:

1. Qanday o'yin texnologiyalarini bilasiz?
2. O'yin texnologiyalarining adabiy ta'limda tutgan o'rnini kanday baholaysiz?
3. O'yin darslarida fanlararo alokadan kanday foydalanish mumkin? Misollar keltiring.
4. Tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib o'yin texnologiyalarini amaldagi darsliklar asosida mavzuga bog'lab dars ishlanmasi tayyorlang.

Mavzu: Sayohat darslarini tashkil etish

Reja:

1. Sayohat darslari va uning turlari.
2. Sayohat darslarini tashkil etish.
3. Sayohat darslarining ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. Sobirov A.Sh. Adabiyot mashg'ulotlarida maxalliy adabiy va madaniy materiallardan foydalanish: Ped.f.n. ... diss.av-ti. – T., 1995. – 23 b.
2. Xamrolijev K.U Adabiyot o'qitish jarayonida adabiy o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish. Nomzodlik dis... avtoreferati. – T., 1993. – 22 b.
3. Usmonov J. Adabiyot muzeyi va dars. -- T.: O'qituvchi, 1987. – 88 b.
4. Xalilov F. Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishda tasviriy san'at asarlaridan foydalanish. Til va adabiyot ta'limi, 1998, 2-son. 28-34-betlar.

Adabiyot darsining noan'anaviy shakllaridan yana biri adabiy ekskursiya darsidir. O'quvchilarning mustakil ijodiy tafakkur kobiliyatini rivojlantirish maksadida ushbu usul ko'llanadi. Maktabda XIV-XIX asrlardagi hayot ifodalangan asarlarni o'qiganlarida, u davrdagi moddiy, ma'naviy hayot hakida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Ularda shunday tasavvur hosil qilishga darsni ekskursiya usulida olib borish yordam beradi. Masalan: tarix muzeyiga, adabiyot muzeylariga sayohat uyushtiriladi. U erda o'quvchilar o'tmish madaniy yodgorliklar-me'morchilik,

haykaltaroshlik asarlarini, tasviriy san`at obidalarini o`z ko`zlari bilan ko`rganlaridagina xotiralarida yaxshi saklashlari mumkin. Shu o`rinda adabiyot darsining tarix bilan chambarchas bog`likligi yakkol namoyon bo`ladi. Tarix darslarida asosan o`sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti o`rganilsa, adabiyot darslarida aynan shu davrdagi adabiy muhit shoir va adiblar ijodi o`rganiladi.

Hamid Olimjonning kitobxonlarga yaxshi tanish “O`rik gullaganda” she`rini oladigan bo`lsak, ushbu asarni o`rganishda ham sayohat darslaridan foydalanishimiz mumkin.

Derazamning tagida bir tup O`rik oppoq bo`lib gulladi,
Novdalarni bezab g`unchalar Tongda aytdi hayot otini.
Va shabboda kurg`ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini...

She`rni o`qigan har bir kishi avvalo ilk bahorni, erta tongni ko`z oldiga keltiradi. Ushbu she`r o`tilayotgan paytda ham bolalarni tabiat ko`yniga olib chikilsa, o`sha erda she`rda keltirilgan tasviriy vositalar , o`xshatishlar izohlansa maksadga muvofik bo`ladi.

Biz yukorida aytib o`tdik XIV-XIX asr tarixini, adabiyotini o`rganayotgan davrda ayniksa adabiy ekskursiyalar muhim ahamiyatga ega. Biz bilamizki, adabiyot o`ktuvchisining vazifasi avvalambor o`quvchiga odob-axlokni, vatanga muhabbat, yurtga sadokatli bo`lish kabi tuyg`ularni shakllantirishdir. O`kuvchilarning fan asarlarini puxta egallashlarida, fanlararo alokani mustahkamlashda; o`lkamiz o`tmishini chukur o`rganish va shu asosda bugungi kun vokea-hodisalarini teran mushohada kilishimiz lozim.

Adabiy ekskursiyalarni tashkil etishda ota-onalar bilan, maktab ma`muriyati bilan kelishilgan holda Samarkad, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayohat uyushtirilsa. O`kuvchilarning tarixiy obidalarini o`rganishga, ularni asrashga bo`lgan rag`bat yanada oshar edi.

Adabiy ekskursiya deganda fakatgina ko`rib kaytish emas, balki o`quvchi ko`rganlarini gapirib berishi, sinfda atroflicha muhokama kilinishi zarur. Bu o`qituvchidan ham o`ta bilimdonlik va tashkilotchilikni talab kiladi. O`qituvchi o`quvchilarni kiziktirgan savollarga javob bera olishi, ularni atroflicha bahslar utkazishga jalb kila olishi zarur.

Alisher Navoiyga bag`ishlangan darsni o`tishda o`quvchilarni muzeyga olib borish yoki muzey eksponatlarini namoyish kilgan ma`kul. Bunda¹ Alisher Navoiyning bolalik va yigitlik chog`lari hakida rassom A.Ciglincevnig “Alisher maktabga borgan payt”, B.V.Cestinskiyning “Alisher Navoiy “Mantik-ut tayr”ni o`qimokda”, A.Ciglincevnig “Mashhad. Alisher Abulkosim va Husaynga she`r o`qib bermokda” kabi rasmlardan foydalanib o`qituvchi o`quvchilarga jonli ma`lumot berishi mumkin.

¹ Қаранг: Халилов Ф. Ёзувчининг ҳаёти ва ижодий фаолиятини оғранишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Тил ва адабиёт таълими, 1998, 2-сон. 28-34-бетлар.

Oybekning “Navoiy” romaniga ishlangan “Alisher Navoiy” portretida shoirning 30 yoshlardagi payti - uning muhrdorlik vazifasiga tayin etilganlik yillari tasvirlangani hakida ma’lumot berib, bunda o’qituvchi Navoiy kiyofasini Oybekning “Navoiy” ramanidagi kuyidagi parcha asosida tasvirlashi mumkin:

“Shoirning boshida kuchli ko’k takyaga sillik o’ralgan ko’rkamgina salla. egnida odmi shohi to’n, ustida yalang ko’ng’ir movut chakmon... Navoiy o’ttizdan oshmagan bo’lsa ham, yoshi ulug’dek ko’rinardi. Qomati o’rtadan baland, ingichka, lekin pishik, barmoklari uzun va nafis. Kora va kiska sokolli xushbichim miyiklari tekis va sillik; yonoklari chikikrok; kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma’nosi, ma’naviy kudrat va engil, go’zallashtiruvchi ir xorg’inlik jilvalanadi. Qobarikrok kovoklari ostidagi kiyg’och ko’zlarida go’yo tafakkur va xayol bilan birga kandaydir iroda kuchi ifodalangan”.

O’qituvchi xuddi adib tasvirlagan holat musavvir kalamida o’z ifodasini topganligini ko’rsatadi.

Alisher Navoiy hayotining so’nggi yillari hakida ma’lumot berganda Navoiy portretini birinchi bo’lib ishlagan musavvir Kamoliddin Behzodning asari bizgacha etib kelmaganligi sababli Navoiyning Mahmud Muzahhib tomonidan yaratilgan portretidan foydalanish maksadga muvofikdir.

Mazkur portretida shoirning keksalik davri tasvirlangan. U hassaga tayangan holda bir oz egilib turibdi. Ilm-ma’rifat, hakikat va adolat uchun kurashlarning shoirga ta’siri uning okargan sochlaridan, kiyofasidan sezilib turibdi. Ammo shoir jismonan charchagan bo’lsa ham, ruhan tetik ko’rinadi. Biroz chimirilgan koshlari, tiyrak nigohi. Sezilar-sezilmas tabassum bilan bokib turishi jonli va hayotiy ifodalangan.

Demak adib hayoti va ijodini o’rganishda muzeylarga sayohat uyushtirish, u erdagi portret va asarlar, ko’rgazmalarni bevosita adib hayoti bilan bog’lagan holatda o’quvchiga etkaza olish o’qituvchi mahoratiga bog’lik.

Umuman, Fafur Fulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblarimiz ijodini o’rganayotgan paytda ham adabiy ekskursiya usulidan foydalanish maksadga muvofikdir. Masalan, Fafur Fulom ijodini o’rganish jarayonida o’quvchilarga shoir hakida ma’lumot beriladi va shoir uy-muzeyiga ekskursiya uyushtiriladi. O’quvchilarning u erda shoir hakida yanada to’larok ma’lumot olishga muvaffak bo’ladilar. Chunki shoirning esdaliklari, suratlari, shoir foydalangan buyumlari, hattoki uning chalgan tanburi-yu, o’qigan “Qur’on” kitoblari o’quvchida umrbod esda koladigan tuyg’uni paydo kiladi. Bu adibga bo’lgan mehr va hamnafaslik tuyg’usidir.

Umuman, adabiy ekskursiya darslari o’quvchida katta qiziqish uyg’otadi. Darsni nazariy jihatdan o’rganib turib, uni amaliyotga tatbik kilsagina samarali natijaga erishish mumkin.

Tayanch so’zlar: ekskursiya, musavvir, muzey, tabiat, kadamjolar, tarixiy, obida, uyushtirmok.

Savol va topshiriklar:

1. ekskursiya darslari qanday tashkil qilinadi?
2. Dastur va darslik materiallari asosida adib uy-muzeylariga sayohat darslarini tashkil etish yuzasidan reja-konspekt tayyorlang.
3. Tabiat qo’yniga saayohat qilish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlang.
4. Adabiyot muzeyiga sayohat uyushtirish yuzasidan sayohat rejasini tuzing.

5. “Sayohat taassurotlari” mavzusida bahs-munozarali savollar tuzing.

Mavzu: Noan`anaviy dars shakllari. Bahs munozara, muammoli va teatirlashtirilgan darslarni tashkil etish metodikasi.

Reja:

1. An`anaviy va noan`anaviy dars shakllari
2. Noan`anaviy darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida uyushtirish
3. Noan`anaviy darslarning samaradorlik jihatlari
4. 4. Noan`anaviy darslar ko`rinishlari Baxs-munozara darslarini tashkil etish.. Teatrlashtirilgan darslarni tashkil etish metodiksi (Otabek, Kumush, Zaynab va hozirgi yoshlar mavzusi msolida).

TAYANCH SO`ZLAR

Bahs-munozara darslari, muammoli savol, evristik usul, maqbul, nomaqbul.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq» 1998
2. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. –T. «Sharq»1999
3. Mirqosimova M. Adabiy ta`lim metodikasi. –T. 1993
4. Adabiyot o`qitish metodikasi (tuzuvchilar. Q.Yo`ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.
5. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida o`qitish metodlari. Toshkent. «O`qituvchi» 1990 yil.
6. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. Toshkent «Yangi asr avlodi», - 2006
7. <http://www.pedagog.uz>; [www. connect.uz](http://www.connect.uz) : [www. fantexnolog.uz](http://www.fantexnolog.uz)

Ma'lumki, «Adabiyot » darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analarga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «Uyin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, ilojini boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi,

o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o'qituvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish;
- turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferentsiya hamda seminarlar tashkil etish.
- darslarni ko'zatish va ularda IPT elementlarini qo'llash darajasini oshirish;
- ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish;

Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o'rniga aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yo'qlaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ona tili darslarida o'tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o'yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, o'quvchilar ikkiga bo'linib gap tuzadilar. O'yin sharti shundaki, birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak. Gaplar ma'lum bir mavzuga oid bo'lib, natijada matn to'zilatadi. Masalan: «Odam odamsiz yashay olmaydi. Inson o'zining xushtabiati, shirin muomalasi bilan odamlar qalbidan joy oladi», kabi. Maktabda adabiy kechalar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi usullardandir. O'quvchilar bunday tadbirlarda she'rlardan namunalar yodlaydilar, timsollarga bo'linib, asarlardan parchalar ko'rsatadilar, sahnada o'zlari ijro etadilar. Bunda o'quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi.

O'quvchi uchun mustaqil o'rganishga berilgan badiiy asarni taqriz yozish orqali tahlil qilib berish usuli ham ancha samarali natija beradi. Taqriz yozish jarayonida o'quvchilarda badiiy asar tiliga e'tibor kuchayadi, ularni badiiy ijodga o'rgatish imkonlari tug'iladi. Chunki taqriz yozish jarayonida o'quvchi har bir so'zning ma'nosi, salmog'i va ta'sir kuchini to'liq anglab etishga harakat qiladi.

BAHS-MUNOZARA DARSLARI

Bahs darslari o`quvchini ma`lum bir muammo ustida bosh qotirishga shu muammoga o`z munosabatini bildirgan holda yondashib, uni hal etishga yo`lovchi dars turidir.

Bahs darslarini aloxida daqiqali dars davomida o`tkazilsa baxs dars deb, darsni ma`lum bir bosqichida uyushtirilgan baxs esa darsning baxsli bosqichi deb yuritiladi.

Baxs dars o`tkazish uchun o`quvchi-talabalar oldindan tayyorgarlik ko`rishi maqsadga muvofiq.

Ularga muammoli savollar berilishi va shu muammoni xar bir o`quvchi o`zicha xal qilgan xolda darsga tayyorlanib kelishi kerak.

Baxs darslarni xar bir o`rganilgan asar yuzasidan pala-partish o`tib bo`lmaydi. Buning uchun o`qituvchi asarni sinchiklab, o`rganib, baxs munozaraga sabab bo`ladigan o`rinlarni belgilashi, shu o`rinlar asosida o`quvchilarda munozara qo`zg`ay oladigan savollar tayyorlashi, keyin ularni o`quvchi-talabalarga xavola qilishi zarur.

O`quvchilarning darsdagi mas`ulligini oshirish va ularda o`rganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda asosan evristik usulda foydalaniladi.

Biror asarni to`liq o`rganib, bo`lingandan keyin baxs dars o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o`quvchi asar bilan yaxshi va to`liq tanishmagan bo`lsa, berilgan muammoni to`g`ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O`z fikriga ishonmagan o`quvchi baxsga ham aralashib, faollik ko`rsata olmaydi.

Baxs darslar o`quvchilarni fikrlashga, so`zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o`z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muxokama va munozara yuritishga o`rgatadi. O`quvchi-talabalar xaqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat baxsda tug`iladi.

MAVZU: Otabek, Kumush, Zaynab va xozirgi yoshlar.

Teatrlashtirilgan baxs-dars.

**O`qituvchi:** *Moziyga qaytib, ish ko`rmoq xayrli deydilar. Shunga ko`ra biz mavzuni moziydan, o`zbek xayoti, o`zbek ruhi, o`zbekona urf-odat va o`zbek ma`naviyati aks etgan “O`tgan kunlar”dan boshladik...*

Dunyoda shunday yozuvchilar bo`ladiki, ularning ijodisiz, biror milliy adabiyotning taraqqiyot yo`lini tasavvur etib bo`lmaydi.

A.Qodiriy o`zbek xalqining iymonli, vijdonli yozuvchilaridan edi.

Siz o`tgan suxbatlarda Qodiriyning armonli hayoti, ayanchli fojeali taqdiri xaqida eshitgansiz.

Yozuvchi ijodi bilan “O`tgan kunlar” romani bilan, ko`pgina xajviyalari bilan tanishdik.

Asarni taxlil qilish, qaxramonlar ichki va tashqi olamining o`ziga xos tomonlarini ochishda sinf 3 guruhga bo`linadi.

1-tomon: Fojea ro`y berishga sabab bo`lganlarga aybnoma e`lon qiladilar.

2-tomon: Qaxramonlarning hatti-xarakatidan kelib chiqib, fojeani oqlashga harakat qiladilar.

3-tomon: Guvoh sifatida qatnashadilar.

Majlisni Xukmdori odil boshqarib boradi.

Hurmatli jamoa!

Toshkandning mashxur ayonlaridan bo`lgan Yusufbek xoji xonadonida fojea yuz berdi.

Bugun ana shu fojea yuziga bolta urmoq maqsadida yig`ildik.

Qoralovchi va oqllovchi tomonlar tayyormi?

Qoralovchi: *“Oʻtgan kunlar” ishi boʻyicha Yusufbek xoji oʻgʻli Otabekni aybdor deb topdik:*

1. *Otabek ota-ona rizoligisiz margʻilonlik Mirzakarim qutidor qizi - Kumushbibiga uylandi.*

2. *Shuning orqasida oʻz farzandlik burchini unutdi.*

3. *Otabek koʻra bila turib, Zaynabga uylandi va bir bechora qizning baxtiga zomin boʻldi.*

4. *Shariat qonuniga koʻra ikki ayoliga bir xil munosabatda boʻlmogʻi, ikkisini ham oʻz himoyasiga olmogʻi kerak edi. Biroq Otabek bechora Zaynab qarshisida “jonsiz xaykal” boʻlib yashadi. Bir bechora qizning shodligi, dardu xasratiga sherik boʻla olmadi.*

5. *Otabek bechora Zaynabga eng soʻnggi chorani koʻrishga majbur qildi, oʻzi bilmagan xolda Kumushning qoʻliga zaxar tutqazdi.*

Oqllovchi: *Xukmdori odil!*

Roʻy bergan fojeada Otabekning aybi yoʻqligini isbotlash uchun guvohlarni chaqirishga ruxsat soʻrayman.

Guvoh chaqirtiriladi.

Oqllovchi: *Siz Yusufbek Hoji oʻgʻli Otabek xaqida majlis ahligʻa nima ayta olasiz?*

1-guvoh: *Meni Otabek bilan Qodiriy domla orqali tanishgan edim. Otabek 24 yoshlarda, ogʻir tabiatli, ulugʻ gʻavdali, koʻrkam va oq yuzli, mutanosib qora qoshli va egnida chakmon, murti sabz urgan, ilimli va aqlli bir yigit.*

Oqllovchi: *Ayting-chi, guvoh Otabekka bunday yuqori baho berishingizga Qodiriy domlaning maqtovlari sababmi?*

Guvoh: *Aslo, men bu bilan bir majlisda qatnashib, u xaqda koʻpgina aqlli odamlarning maqtov gaplar aytishganini eshitganman.*

Masalan, Ziyo shohi Otabekni maqtab, “Otasini bolasi” degan boʻlsa, Akrom xoji “agar xon koʻtarish manim qoʻlimda boʻlsa edi, xon qilib, Otabekni koʻtarar edim”, - deb aytganriga, Mirzakarim qutidor “Otabek xon qizigʻa loyiq bir yigit ekan” – deb maqtagan soʻzlariga guvohman.

Navbatdagi guvox chaqirtiriladi.

Oqllovchi: *Aytingchi, Otabekda andisha xayo bormidi?*

2-guvoh: *Otabekda andisha hayo bor. U birovning qalbiga ozor berishdan qoʻrqadi. Balki mana shu andisha Kumushning oʻlimiga sabab boʻlgandir. Otabek yodingizda boʻlsa mexmonlarga Xasanalini qul ekanligi sir boʻlmasada, ammo bu sir bilan uning qalbi ozor chekishini oʻylaydi. U odamlarni mansab va boyliklarga qarab emas, balki insoniy fazilatlariga qarab baholovchi bir yigit edi.*

Navbatdagi guvox chaqirtiriladi.

Qoralovchi: *Aytingchi, guvox, Otabek millat taqdiri bilan qaygʻuruvchi kishilardan edimi?*

3-guvoh: *Albatta taqsir!*

Otabekni millat taqdiriga befarq deb boʻlmaydi. Azizbekning Qoʻqonga qarshi bosh koʻtargani xalq tomonidan odatiy qarshi olindi. Ammo Otabek bu xabarga oddiy qaray olmadi. “Eb turgani ogʻzida, qolgani boʻgʻzida qoldi”. Otabek millatni, xalqni,

musulmonni jar yoqasida turganidan vahimaga tushdi. Yoki bir misol; Qipchoqlarning qirg'in etilishi Otabekni daxshatga soldi. U bu fojeaga oddiy tomoshabin bo'lib qaramadi. Barcha zahrini otasiga sochdi. Otabek "jahl chiqsa aql ketadi" qabilida ish qilaversak vaziyatni anglash, oqni qoradan ajrata biluvchi yigitlardan edi. Yusufbek hoji o'g'lining gaplaridan ko'ziga yosh olib, "Nega har bir narsaga etgan aqling shunga etganda oqsaydur?", deganida Otabekdagi ana shu fazilatni nazarda tutgan edi.

Navbatdagi guvox chaqirtiriladi.

Oqlovchi: Siz bizga Otabekning ayonlariga bo'lgan munosabati xaqida biror narsa ayta olasizmi?

Guvoh: Otabekning ayonlariga bo'lgan munosabati ro'mon boshidayoq ma'lum edi. "Oladiring'on xotining'iz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiq bo'lsin", - deya fikr bildiradi. Shu tufayli uylanmay turib, Zaynabga achinadi, "bir bechoraga ko'ra bila turib, jabr ham xiyonat", - degan edi. Otabek Kumushga muhabbat orqasidan uylangan bo'lsa, Zaynabga ota-ona orzusi tufayli uylandi. Shu bois bir qalbgga ikki muhabbatni sig'dira olmadi. Bunda Otabekni ayblab, bo'lmas taqsir.

Navbatdagi guvox chaqirtiriladi.

Qoralovchi: Aytingchi, guvoh, marg'ilonlik Kumushbibining Otabekni sehrlab olishiga sabab bormi?

Guvoh: Zero ota-onasining Otabekdan boshqa umid nishonasi, hayot quvonchi yo'q edi: Yusufbek Hojining tili bilan aytganda, dunyoda ko'rib o'tadigan orzumiz, xavasimiz faqat senga qarab qolgan. Otabek farzandlik burchini yaxshi bilgani uchun ota-ona orzusiga jonsiz xaykal bo'lib rizolik berdi va istamagan holda bechora Zaynabning umriga zavol bo'ldi. Otabek va Kumush o'rtasidagi munosabatda esa, majburiyat bor edi.

Hukmdori odil: "O'tgan kunlar" ishini davom ettirib, ikkinchi aybnomani ham ko'rib chiqsak.

Qoralovchi: Hurmatli jamoa "O'tgan kunlar" ishi bo'yicha Kumushning o'limiga Zaynabni aybdor deb, unga quyidagi aybnomalarni qo'yamiz.

1. Zaynab suymaganga suykalmasligi kerak edi. U OtabekKumushni yaxshi ko'rishini bilsa-da, ikki qalbgga ozor berdi.

2. Zaynab bolaligidan pismi qiz bo'lib, turmushga chiqgach, ham ana shu odatini qo'ymadi. O'z tarbiyasizligi orqasidan Otabekdan bir necha bor dakki eshitdi.

3. Zaynab eng og'ir jinoyatga qo'l urdi. Kumushni zaxarlab o'ldirdi. Daxshatlisi shundaki, norasida go'dakni ona mehridan mahrum etib, 3 oila baxtini poymol etdi.

Oqlovchi: Hurmatli majlis ahli, qoralovchi janoblari, Zaynabni fojeaning asosiy aybdori deb topdilar. Biroq Zaynabni bu ishga qo'l urushida kim aybdor? Axir uni bu ishga undagan yolg'iz Xushro'ybibigina emas-ku! Nahotki, Zaynabning sevgisiga va sevilishiga haqqi bo'lmasa? Otabekning xo'rlashlari etmagandek, O'zbek oyim ham o'zlari suyib olgan kelinlariga nisbatan to'nlarini teskari kiyib oladilar. Qoralovchi Zaynabni tarbiyasizlikda aybladilar. Axir O'zbek oyimdek butun Toshkentni oyoqqa turg'iza oladigan bir ayol, yakka-yu yolg'iz o'g'lga tarbiyasiz bir qizni ravo ko'rish mumkin edimi? Zaynab ham husnda, oriyatda, odobda Kumushdan qolishmas edi. Uning yolg'iz aybi Otabek tomonidan sevilman. U bu xonadonga baxt izlab kelgan, ne-ne orzu umidlar bilan bir yastuqqa bosh qo'ygan edi.

Biroq Otabek aqlli va dono yigit Zaynabdan bir og'iz shirin so'zini, bir daqiqalik shirin muamilasini qizg'andi. Bechora qiz Kumushning baxtli kunlarini ko'rib, poymanasi to'lsa-da, sabr etib chidadi. Biroq chaqaloqning qo'liga zaharni achchiq xayot, O'zbek oyim, Otabek va qolaversa Kumushbibining o'zi tutqazdi. Chunki sevib – sevilishga, shu xonadonning erka kelini bo'lishiga Zaynabning ham xaqqi bor edi. Otabekni yorim degandi. Yorim vafodorim degandi. Kumushdan ham ortiq suygandi. Siz Zaynabga tutmangiz oson.

Xukmdori odil: Xurmatli majlis ahli”O'tgan kunlar” ishi yuzasidan aybnomani ochiq qoldirishga qaror qildik.

Otabek ta'nasi qaynadi keyin,
Chirqiragan go'dak undan ham battar,
Tushun, qutqarmog'im edi ko'p qiyin,
Haq tarih Zaynabga tutqazgan zaxar,
Yaxshi ko'rar edim, seni Kumushoy.

Shu bois, bu masalada Siz ham mulohaza yuritasiz degan umiddamiz. Buning uchun “O'tgan kunlar”ni qayta-qayta o'qish zarur. Zero, moziyga qaytib ish ko'rmoq, xayrli deydlar.

Dars yakunlandi va o'qituvchi o'quvchi-talabalar ishtirokini baholaydi.

Uyga vazifa beriladi.

Uyga vazifa “Asar qaxramoniga maktub” mavzusida insho yozish.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mazmuni har tomonlama etuk ma'naviyatli, ma'rifatli kadrlarni kamol toptirish, voyaga etkazish xar bir ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsdan ya'ni, o'qituvchidan, yuksak iste'dod talab qiladilar.

Bu iste'dod faqat o'qituvchining bilimini oshirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun o'qituvchi hamma soha bilan hamnafas bo'lishi nazarda tutiladi.

Xar bir darsga aloxida mas'uliyat bilan tayyorlanish o'qituvchining muqaddas burchidir.

Bilimdonlik, tajriba, nisbiy mahorat, ko'nikma adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi muxim omildir.

O'qituvchining dars o'tishdagi maxorati mavzuga mos metodlar va usullarni to'g'ri tanlay olishiga ham bog'liqdir.

Noan'anaviy darslar oddiy darslardan farq qilib, ularning o'quvchi mustaqil fikrlashini shakllantirishda o'rni beqiyosdir.

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH METODLARI

Bularga: “*Miya hujmi*” (“*miya jangi*”).

Sinektika.

Mojaro metodi.

“*Dumaloq stol*”

“*Uch bosqichli interv`yu*”.

Muammolarni xal qilish metodi.

Akliy mujum

Umumta'lim maktablarining VII sinfida Mirtemirning payoti va ijodini o'rganishga 3 soat ajratilgan. “Onaginam”, “Toshbu”, “Men tuKilgan tuprok” she'rlari o'rganiladi.

Mazkur darslarga reja yozdirilgan, ko'rgazmali kurol, Mirtemir faoliyatiga alokador rasmlar, xronologik jadval, shoir to'plamlari, adib mukidagi makollar, darslik, magnitafon, "Ona" portreti olib kiriladi.

Birinchi dars Mirtermir mukoyoti va ijodiga mukishlangan bo'lib, tarjimai mukoli va adabiy merosi mukida fikr yuritiladi. O'tgan darsni mustamukamlash uchun savoolar beriladi:

1. O'z onangiz mukida so'zlab bering.
2. Onalar nima uchun tabarruk?
3. Ona mukidagi mukadislardan bilasizmi?
4. Makollarda onalar mukida nima deyilgan?

Savollarga javob olingach, o'quvchilar fikrin bir erga yikib, "Toshbu" she'ri magnitafon orqali eshittiriladi.

O'qituvchi "Akliiy mukujum" uchun tayyorlangan savollarni o'quvchilar mukmiga mukavola kiladi:

1. "Toshbu" she'rida ilgari surilgan Koyani ayting.
 2. Toshbuning ichki va tashki kiyofasini she'rdad ifodalanish mukida fikringiz?
 3. Tozir eshitgan she'rning nomini eslang?
 4. She'rd shoir tomonidan Toshbuning ichki va tashki kiyofasiga kaday mukuo berilgan satrlarni toping.
 5. "Toshbu" she'rida o'zbek ayollariga xos yuksak ma'naviy – axlokiy fazilatlarining jonli va ta'sirchan rupi mukidagi qarashlaringizni tushuntiring
- O'kuchilar javobi tinglangach, o'qituvchi dars mavzusini yakunlaydi.

Yoki Shukur Xolmirzaevning "O'zbeklar" mukoyasini o'tishda dars mazmuni rejasi kuyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tikoya nima uchun "O'zbeklar" deb nomlangan?
2. BaKrikenglik, mukisorlik, samimiyylik, soddalik, soxtalik, tubanlik tushunchalarini izoplang.

Shu savollar asosida o'qituvchi o'z tushunchalarini "Akliiy mukujum" metodi asosida olib borishi mumkin. Ya'ni Botir cho'pon va uning ayoli nochor, kambaKal bo'lsalarda, tanti o'zbeklarga xos bo'lgan soddadilligi, BaKrikengligi, samovatlilik bilan o'ziga bek insonlar ekanligini ta'kidlaydi o'qituvchi.

Metodning qiymati shundaki, u guruhni birlashtirib, yakdil qiladi.

2. Sinektika.

Sinektika "miya jangi" bilan bir hil.

3. Mojaro metodi.

Bu metod fikrlashni juda faollashtiradi va ularni favquloddagi vaziyatlarda ishlashga o'rgatadi.

Muximi – topshiriqni to'la bajarish emas, balki tezlik bilan, chaqqon bajarishdir.

4. Dumaloq stol metodi.

Topshiriq yozib, qo'yilgan qog'oz varag'i davrda bo'ylab o'tkaziladi. Xar bir o'quvchi – talaba o'zining javob variantini yozib qo'yadi. Oxirida to'g'ri javob aniqlanadi. Bu yozma va og'zaki bajarilishi mumkin.

5. "Uch bosqichli interv'yu".

"Uch bosqichli interv'yu" – ishtirokchilar uch guruhga bo'linadilar.

6. Muammolarni hal qilish metodi.

FIKRLAR XUJUMI

Fikrlar xujumi bevosita jamoa bo'lib, dialog tariqasida olib boriladi.

Bu metodni qo'llashdan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, tadbiq etish, talabalarni bir hil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir, ya'ni aniqlik kiritishdir.

Bu metod A.F.Osbori tomonidan tavsiya etilgan.

Bu metod ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulot davomiyligi bir soatgacha.

Yalpi "Fikrlar xujumi" metodi. J.Donal'd Filiks tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20 kishidan 30 kishigacha).

Bu metod yangi g'oyalar ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi.

Bunda ishtirokchilar 5-6 tadan iborat kichik guruxlarga bo'linadi.

Muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro "Fikrlar xujumi" o'tkaziladi.

Kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya xaqida axborot beradilar. Yaxshi betakrorlari tanlab olinadi.

Fikrlar xujumi

Oybek she'rlariga noan'anaviy yondashuv.

"Kuzda" she'rini "Bajus, munozara" texnologiyasi asosida ta'lim qilish.

Darsning maksadi:

O'quchilarning erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatish, tabiatga e'tiyotkorona munosabatda bo'lishga undash.

Darsning jumbo'i:

Oybekning "To'plam" asarlari, Oybek mu'assasasidagi fikrlar.

Dars shiori:

Oshkora munozaralar tufayli xatolargina emas, balki yomon bema'niliklar mu'ammolar tezda bartaraf etiladi.

(M.E. Scherdin)

Bajusda go'yo sen uchkur to'ysan,

Jizishmasang ko'p yikilmasan.

(N.Xusrav)

Darsning borishi:

O'qituvchi Oybekning "Kuzda" she'rini chiroyli kilib, bolalar diqqatini tortib oladigan tarzda o'qib beradi. So'ng she'r bolalar tomonidan kayta o'qiladi. O'qituvchi kuyidagi savollarni munozara uchun ko'rgazma doskasiga iladi.

1. She'r muallifi kim?
2. e'tibor bering, she'ri nima uchun "Kuzda" deb nomlangan?
3. Uchar, erni o'par bir gala yaprok,
O'qib bitirshdi yoz dostonini.
OKochlar gavdasi orik va titrok,
Salkin el uchirdi yaxshi konini.
4. Ma'lumki, kuz faslida ko'p shamol esib, yomKir yoKadi. Bu mu'olot she'rda kanday ifodalangan?
5. Shoir yozni kimga yoki nimaga o'xshatyapti, nima uchun?
6. "Uchib er tishlaydi bir gala yaprok" misrasidagi go'zal o'xshatish orqali shoir kuzdagi kaysi, mu'olotni aks ettirgan?
7. Kuz fasli nima uchun "Oltin"ga o'xshatiladi?

8. Shoir peyzaj tasviriga asoslangan she'r orqali nima demokchi?

Bu savollarga olingan javoblar orqali texnologiyadan ko'zlangan asosiy maksad o'quvchi – talabalrni mamasini kamrab olib, fikrlashga mam bilmi olishga o'rgatishdan iboratdir.

TARMOQLAR METODI - KLASTER.

Tarmoqlar metodi - fikrlarning tarmoqlanishi, o'quvchi-talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod o'quvchi-talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi.

3. Klaster usuli

Klaster usuli zamonaviy ta'lim jarayonida keng ko'llanilmokda. "Klaster" so'zi "boKlam" ma'nosini anglatadi. Klaster biror mavzuni o'rganayotgan o'quvchi talabalarning erkin fikrlashiga yordam beradi, ularga o'z fikrini ochik – oydin ifodalashga ko'maklashadi. Klaster usuli o'quvchi talabalarda bilgan fikrlarini ifodan tashkari yangi fikrlarni uyKotadi, o'zi bilmagan tushunchalarni o'rganib oladi.

Masalan, XI sinf adabiyot dasturida I.I. Niyoziy mayoti va ijodini o'rganishga 3 soat ajratilgan. I.I.Niyoziy ijodidan ayrim namunalar VII sinfda mam o'rganilganini misobga olib, XI sinfda adib ijodiga baKishlangan birinchi darsda klaster usulidan foydalanish maksadga muvofikdir.

O'qituvchi yozuv taxtasi o'rtasiga "I.I.Niyoziy" deb yozib ko'yadi. Shundan so'ng I.I.Niyoziy mayoti va makida bilganlarini o'quvchi – talabalar yozadilar.

"I.I.Niyoziy" mavzusi bo'yicha klaster tarkibi:

1. 1889 yilda Jo'konda tuKilgan;
2. Madrasada o'qigan;
3. arab, fors, rus, tatar, turk tillarini bilgan;
4. 12 yoshida she'rlar yozgan;
5. lirik shoir;
6. ma'rifatparvar shoir;
7. jadid adabiyotining vakili;
8. dramaturg;
9. shoir;
- 10.nosir;
- 11.makolanavis;
- 12.jadid muallimi;
- 13.darsliklar muallifi;
- 14.bastakar;
- 15.rejissiyor;
- 16.aktyor;
- 17.jamoat arbobi;
- 18.Toshkent, Samarkand, Buxoro, Namangan, Xorazmda yashagan;
- 19.maj safarida bo'lgan;
- 20.ilKor qarashli shoir;
- 21.bid'atlarga karshi kurashgan shoir;

22. ayollar ozodligi kuychisi;
23. vatanparvar shoir;
24. O'zbekiston xalk yozuvchisi;
25. 1929 yilda Shoimardonda vafot etgan;
26. nomi adabiy lashtirilgan.

3 "Bumerang" usuli bo'yicha savollar:

1. O'zbek mumtoz shoirlaridan kimlarni bilasiz va ular nechanchi asrda yashaganlar?
2. Uvaysiyning asli ismi va uning taxalluslari?
3. Uvaysiy kachon va kaerda tavallud topgan?
4. Uvaysiyning adabiyotga qiziqishida kim ta'sir ko'rsatgan?
5. Uvaysiyning umr yo'ldoshi kim bo'lgan?
6. Uvaysiyning nechta farzand ibo'lgan?
7. Uvaysiy kimga ustozlik qilgan?
8. Uvaysiy she'riyatining asosiy Koyasi?
9. Uvaysiy necha yil umr ko'rgan.

Nodirabegim hayoti va ijodi

1. Nodirabegimning asl ismi nima?
2. Nodirabegim kachon va kaerda, kaday oilada dunyogi keldi?
3. Nodirabegim kaday taxalluslarda necha tilda ijod qilgan?
4. Nodirabegimni kim "Nodirai davron" deb ta'rifi qilgan edi?
5. Nodirabegimning ustozlari kim?
6. Nodira Kazallarida nima kuylanadi?
7. Nodirabegim kaday shoirlarni ustoz deb bilgan?
8. Nodirabegim kim tomo nidan katl etilgan?
9. Umarxon vafotidan keyin davlatni kim boshqaradi?
10. o'azallarida iloiy ishkni kaday tasvirlagan?
11. She'rlarida o'zbek ayolining kalb hayoti kaday tasvirlangan?
12. Uvaysiy va Nodirabegim munosabati?
13. Iloiy muabbatni insoniy hayyatini siz kaday tushunasi?

BUMERANG TEXNOLOGIYASI

"Bumerang texnologiyasi" bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etishga yo'naltirilgan.

U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, bu mashg'ulot davomida xar bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi nazarda tutiladi.

Bu texnologiya tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim-tarbiya birligi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- Jamoa bilan ishlash mahorati.
- Muomala madaniyati.
- Xushfe'llilik.
- Ko'nikuvchanlik.
- O'zga fikriga hurmat.
- Faollik.

- Ishga ijodiy yondoshish.
- O'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish.
- Xolis baholash.

SQARABEY TEXNOLOGIYASI.

Sqarabey texnologiyasi - interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.

Bu texnologiya o'quvchi-talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, faol ijodiy ishlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.o', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: "O'qituvchi" 2004 y.
2. Usmonova K. Adabiy ta'limda ilKor pedagogik texnologiyalar 1-kism. T.: 2006 y.
3. Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar 1-kism. T.: 2006 y.
4. Mirkosimova M. Badiiy asar tahlili. O'quv ko'llanma. T.: 2007 y.
5. Niyozmetova R.I. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. T.: "Fan" 2007 y.
6. Iusanboeva J. Adabiy ta'limda mustakil fikrlashga o'rgatish asoslari. T.: "Uzinkomcentr" 2003 y.
7. Suyunov I. Adabiyot darslarida savol – topshiriklar ustida ishlash. T.: 2004 y.
8. Baxodir Karim. Abdulla Jodiriy: tankid, tahlil va talkin. T.: "Fan" 2006 y.
9. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustakil ishlar. T.: "O'qituvchi" 1996 y.

Mavzu:lirik asarlarni o'rganishda yangi pedagogik texnologiyarning o'rni va ahamiyati.

Reja:

- 1.Lirik asarlarni janr xususiyatiga ko'ra o'rganish.
- 2.Lirik matnni tahlil qilish.
- 3.Lirik asarlarni o'rganishda ifodali o'qishning o'rni va roli.
- 4.Janr haqidagi fikrlar.

Tayanch so'zlar

Janr, poetik matn, lirika , lirik qahramon, tuyg'u, ifodali o'qish

Adabiyotlar:

- 1.Jamol Kamol. Lirika. adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik.2-tom adabiy tarixiy jarayon.T."Fan"1979
- 2.T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.T.O'zbekiston 2002
- 3.Qurbonov.D . Adabiyotshunoslikka kirish.T. A.Qodiriy nomidagi "xalq merosi nashriyoti"2004
- 4.Shukurov N.Xotamov N.Xolmatov Sh .Maxmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T."O'qituvchi" 1979

Badiiy adabiyot ilmiy adabiyotdan hayot haqiqatini jonli va jozibali tasvirlashi bilan keskin farqlanadibadiiy asarlar 3xil bo'ladi:

1.Lirik asarlar(she'rlar, ruboiylar,g'azal, tuyuq , qo'shiq muxammas fard qit'a,qasida, musamman va boshqalar)

Lirik asarlarda voqelik ayrim shaxslarning kechinmalari, o'y fikrlari,asosida ko'rsatiladi.

Lirika mazmun mohiyatiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

a)intim lirika- shoirning ruhiy kechinmalari va hissiy olami aks ettiriladi.

b)ijtimoiy lirika-real hayotda ro'y bergan voqea-hodisalar tasvirlanadi.

Lirik asarlar va ularni o'rganish boshqa turdagi asarlarni o'rganishdan farq qiladi.

Lirik asarlar hajm jihatdankichik, mazmunansiqiq bo'ladi. lirik asarlarning mazmundorligi ,bo'yoqliligi, va ayniqsa emotsionalligi ularni o'qishga alohida ahamiyat berishni talab qiladi. Lirik asarlarni o'qishda shu o'qish orqali uning o'ziga xos xususiyatlarini, shoirning his-tuyg'ularini, umid-orzularni aks ettirishga erishish zarur. O'qish mashg'ulotlarida she'rning mazmuni, ohangi, his-tuyg'uni o'quvchi-talabalar sezishlari, shoirning yyurak to'lqinlariga sherik bo'lishlari kerak. Shundagina she'rning mohiyati echiladi. Shoirning maqsalarini o'qish orqali his qilish lirikaning ustida ishlashning asosiy shartidir.

Lirik asarlarni o'rganishda asosiy ikki narsaga: badiiy ifodali o'qish texnikasini egallashga va she'rning badiiy til xususiyatlarini tahlil qilish masalasiga e'tibor brish kerak.

Badiiy adabiyot, umuman, san'at asarlarining inson ruhi tafakkuriga ta'siri sababi nimada ekan?

Bu savolga javob topish tushanarliroq bo'lishi uchun, badiiy va ilmiy adabiyotni taqqoslab ko'rish lozim.

Bilamizki, umumta'lim maktablarida "Tabiatshunoslik", "Geografiya" singari o'quv fanlari o'tiladi. Ularda kecha-kunduz, uning eng go'zal va so'lim fursati bo'lmishtong to'g'risida, yumaloq er sharini nurlari bilan yorituvchi quyosh haqida bir talay ma'lumot lar beriladi.

Quyosh bo'lmasa Erda hayot bo'lishi mumkin emasligi aytiladi. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning aqliy saviyasi yuksalishiga ta'sir qiladi. Ular tufayli bolalar kecha-kunduz, tong va boshqalar haqida oldin bilmagan narsalaridan xabardor bo'ladilar. Ayni vaqtda, o'quvchlar tong payti tabiat juda go'zal bo'lishi haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar.

Lekin bu bilim va axborotlar bolalarning aqlini boyitib, tafakkurini o'stirsa ham, hissiyotlariga, tuyg'ulariga deyarli ta'sir qilmaydi.

Rauf Parfining "Tong otmoqda..." deb nomlangan she'rida bir parchani o'qib ko'raylik:

Tong otmoqda. Tong o'qlar otar,

Tong otmoqda, quyosh zambarak.

Yaralangan Yer shari yotar,

Boshlarida yashil chambarak.

Shoir tong otishi qanday bo'lishini batafsil tasvirlab, nima ochun shunday bo'lganligini tushuntirib berayotgani yo'q, mavjud hayotiy holatdan, go'zal badiiy manzara yaratmoqda. Shoir ting otish jarayonini juda go'zal tasvir etadi. O'quvchini ham tongning chindanda go'zal otishiga ishontiradi.

Quyoshning zambarak "o'qlar" otishi, o'sha nurlardan Yerning yaranishi, va bu yaralanish tufayli o'lim emas, balki boshlarida yashil chambarak – hayot mavjud ekanligi juda ham o'ziga xos tarzda ifodalangan.

Abdulla Oripov "Kolumbda bor alamim manim, O'zbekiston vatanim manim" – der ekan, bu orinda Amerika qit'asi mavjud ekanini Kolumbdan bir necha asr avval o'zbek olimi bashorat qilib ketganini poetik ishora va bu ilmiy-tarixiy haqiqatga shoirona munosabat hamda Beruniyga vatandoshlaridan faxrlanish, g'ururlanish tuyg'usi bor.bunday misralar kuchli estetik ta'sirdan tashqari, kitobxonni ma'rifiy jihatdan boyitadi.

Yoki siz vatanparvarlik mavzuiga bag'ishlangan ikkita she'r o'qidingiz. Ya'ni ikkovining mavzui birdek dolzarb. Birinchisi sizga mutlaqo ta'sir etmadi, tuyg'ularingizni uyg'otmadi. Ikkinchisidan esa behad hayajonlandingiz, vatanga mehringiz ortdi, shu vatanga munosib farzand bo'lish tuyg'ularingiz yanada mavjlandi.bu, sherdagi badiiy mukammallik tufaylidir. Demak, har qanday, hatto eng dolzarb mavzu ham faqat go'zal, yuksak saviyada, mukammal ravishda o'z ifodasini topgan taqdirdagina muhim ahamiyat kasb eta oladi.

Lirikada qahramonning ichki kechinmalari hayotning go'zal va xunuk tomonlari aks ettiriladi. Lirik sherlarda yozuvchi o'zi to'g'risida, o'zining xayol va o'ylari, orzu istaklari, hissiyotlari va boshqa odamlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari haqida gapiriladi.

Lirik tur janrlarining asosida ham inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinchi va iztirobi o'zining badiiy ifodasini topadi.

V-IX sinflarda lirik asarni organishning asosiy usuli o'qituvchi va o'quvchining ifodali o'qishidir.

Ifodali o'qish bilan o'quvchi sherda shoir tasvirlagan voqea, obraz haqida tasavvurga ega bo'ladi. Bunga u har bir so'z, misra mazmuni chuqurkshtirish orqali erishadi. Sheriy asarlar turli shaklda tahlil qilinadi: aniq reja asosida ifodali o'qiladi, ayrim so'z misralarga izoh beriladi, obrazlar taqqoslanadi, suhbat tashkil qilinadi.

X-XI sinflarda lirik asar tahlili turli turli usulda bo'lishi mumkin. Tahlil davomida o'quvchlar sher to'g'risidagi o'z shaxsiy fikrlarini ham bayon qiladilar.

A. Oripov "Temir odam" sheriga "Temir odam" deb nom qo'yganligini izohlash.

Ma'lumki, A. Oripovning bu sherida murakkab matematik tenglamalarni oson yecha oladigan , elektron hisoblash mashinalari bilan ikkilanmay muomalada bo'lish iqtidoroga ega bo'lgan shaxsning yig'layotgan bolaga befarq qarashi mumkinligi va bunday odmlarni "Temir odam" deb atash lozimligi ko'satiladi. O'qituvchi bu o'rinda o'z so'zida muqim turadigan, so'zi bilan amali mos keladigan temir irodali odamlarni xalq ijobiy ma'noda Temir odam deb atashini esga soladi. A. Oripov esa o'z sherida o'zgalar g'amiga befarq qarovchi hissiz, bag'ritosh odamlarga nisbatan "Temir odam" atamasini qo'llagan.

Ma'lum bo'ladiki, bitta so'z birikmasi ikki vaziyatda tamomila zid ma'nilar anglatishini o'quvchlarga tushuntirish imkoni paydo bo'ladi.

**MAVZU: DRAMATIK ASARLARNI O'RGANISHDA PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FAYDALANISH.**

REJA:

1. Dramatik asarlarning janr xususiyatlariga doir ma'lumot.
2. Dramatik asarlarni o'rganishning o'ziga hos xususiyatlari.
3. Dramatik asarlarni o'rganishda saxna bezaklari, muallif remarkalarining o'rganish.

TAYANCH SO'ZLAR: Janr, muallif nuqtai nazari, ong, idrok, monolog, dialog, remarka, pauza, parda, ko'rinish, proza, poeziya, ohang, badiiy tasvir, konflikt.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.Zunnunov va boshqalar “Adabiyot o'qitish metodikasi”
–T, “O'qituvchi” 1992 yil.
2. B.Imomov, Q.Jo'raev, Q.Xakimova “O'zbek dramaturgiyasi tarixi” –T.,
“O'zbekiston” 1995 yil.
3. I.Sultonov “Adabiyot nazariyasi” –T, “O'qituvchi” 1980 yil.
4. B.To'xliiev “Adabiyot o'qitish metodikasi”
–T, “Yangi asr avlodi” 2006 yil.

Dramatik asarlar (drama, komediya, tragediya (fojia)). Bunday asarlarda voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-xarakatlari, nutqlari orqali ochiladi.

Dramatik asarlar sahnaga moslab yozilgan bo'ladi, yozuvchining fikrlari asarda ishtirok etuvchilarning so'zlari va xarakatlari vositasida ko'rsatiladi. Dramatik asarlar kompozicion tuzilish jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qiladi. Shuning uchun drama janri so'z san'atiga mansub bo'lsa xam, saxnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Dramada har bir obraz o'z harakteriga xos xislatlarni jonli tili, hatti-harakati orqali namoyish qiladi. Shunga ko'ra, dramada muallif nutqi bo'lmaydi, balki uning nutqi qavs ichida izohlanadi. Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan voqealarni qahramonlarning o'zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlarning hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi.

Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovozning baland-pastligi katta ahamiyatga ega bo'lib, nutqning o'ziga xos bu xususiyat sahnada yanada aniqroq ko'rinadi.

Drama adabiyotning gultoji hisoblanadi. Unda dramaturgga nisbatan tashqi voqea-xodisalar, hayotiy masalalar, ishtirok etuvchi shaxslarning o'z-o'zini namoyon qilish vositasida aks ettiriladi. Xar qanday xodisa xam dramatik bo'lavermaydi.

“Dramatizm” faqat suxbatda emas, balki gapiruvchilarning bir-biriga nisbatan xarakatidadir”- degan edi V.G.Belinskiy. Albatta xarakat birligi poeziyaning boshqa turlarida xam mavjud. Chunki usiz asarni g'oyaviy-badiiy jixatdan bir butun yaxlit mukammal xolatga keltirish mumkin emas. Agar xarakat birligi bo'lmasa asar aloxida-aloxida parchalarga bo'linib ketadi va uni “asar” deb atash mumkin bo'lmay qoladi.

Voqea-xodisalar dramada xuddi xozirning o'zida bo'layotgandek ko'rsatilishi, uning uchinchi xususiyati xisoblanadi. Dramada dramatik xarakat tomoshabin ko'z o'ngida xozirning o'zida sodir bo'layotgandek ko'rinadi. Shunga ko'ra poeziyaning boshqa turlariga nisbatan ba'zan drama kishilar qalbiga va ongiga kuchliroq ta'sir ko'rsata oladi. Bu ta'sirning qudratini oshirishda saxna muxim rol o'ynaydi.

N.V.Togol' dramaning umri faqat saxnada ekanligini, saxna uning obrazlariga qon va jon bag'ishlashini, poetik tasvirni kshirish va eshitish sezgilari bilan uzviy bog'lanishini aloxida ta'kidlagan edi.

Dramada tomoshabin ko'z o'ngida kishilarning jonli so'zlashuvlari bilan bir qatorda imo-ishoralari, tabassum va qaxqaxalari, iztirobli yig'ilari va ko'z yoshlari xuddi xayotdagi kabi gavdalangandek bo'ladi.

Adabiyotning boshqa turlari kabi tarixiy taraqqiyot jarayonida dramaning xam bir qator janrlari va ko`rinishlari yuzaga kelgan. U janrlarning eng muximlari tragediya, komediya va dramadir.

Tragediya dramatik poeziyaning eng muxim janrlaridan biridir. U qadimgi Yunonistonda dunyoga kelgan. Ya`ni eradan avvalgi V asrda qadimgi yunon tragediyasi gullash davrini boshidan kechirgan. Bu davrda Yunon poeziyasi lirika va eposining ulkan namunalariga ega edi. O`tmish an`analari qadimgi Yunon dramasi rivojida nixoyatda muxim vazifani o`tadi.

Sofoklning “Shox edip” tragediyasida qo`rquv xissi, ya`ni fojeaviy tuyg`u boshqacharoq tarzda yuzaga keladi. Asarda Fiva shoxi Lay va xotini Iokastaning o`g`li edip otasini o`ldirib, o`z onasiga uylanishi kerak. Bunday jinoiy ishning oldini olish maqsadida Lay chaqaloqni o`ldirishni buyuradi. Chaqaloqni o`ldirish bir cho`pongp topshiriladi. Ammo bashorat o`z so`zini aytadi. edip asar so`ngida podsholikka ko`tariladi va yana tanimagan xolda Layning bevasiga, ya`ni o`z onasiga uylanadi. Bu erda qo`rqinchli, fojeaviy tuyg`u, tasodifiy bir voqea inson xayotini tubdan o`zgartirib yuborishi va uni beixtiyor jinoyatchiga aylantirib qo`yishida tug`iladi. Ko`pincha tragediyadan tug`iladigan qo`rquv va achinish tuyg`usi undagi qaxramonlarning xalokati bilan belgilanadi degan fikr ilgari suriladi. Shunday qilib, qadimgi Yunon tasvir manbai o`ziga xos bo`lgan, ya`ni unda qo`rquv, achinish va xayrixoxlik tuyg`usi uyg`otadigan ko`tarinki voqea-xodisalar aks ettirilgan.

Komediya xam dramatik poeziyaning qadimiy janrlaridan bo`lib, unda odatda kishilarga, ba`zida esa muayyan ijtimoiy sharoitga xos salbiy xususiyatlar kulgu ostiga olinadi. Komediya taraqqiyoti ikki asosiy yo`nalishdan borgan.

Birinchi yo`nalishdagi komediyalar voqea-xodisalarning kulguligiga asoslangan. Ikkinchi yo`nalishda esa, xarakterlar komizmi muxim o`rin tutadi.

Albatta mazkur yo`nalishlarning bir-biriga ta`sir qilgan, o`zaro chatishib ketgan hollari ko`p bo`lgan.

Komediya ham qadimgi Yunonistonda dunyoga kelgan.

O`zbek komediyana visligi taraqqiyotida A.Qahhorning shu janrdagi asarlari yangi bosqichni tashkil etadi.

Drama – g`arb adabiyotida VIII asrda maydonga kelgan.

O`zbek adabiyotida dramaning dastlabki namunalari XX asrning dastlabki yillarida yaratila boshlagan.

Bexbudiyning “Padarkush”, Xamzaning “Zaxarli xayot”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” singari p`esalarida xalq xayotini ilm-ma`rifat asosida o`zgartirish, yaxshilash mumkinligi xaqidagi g`oya etakchi o`rinda turadi. Xamza ijodi adabiyotimizda drama janri taraqqiyotiga barakali ta`sir ko`rsatdi.

O`zbek dramaturgiyasi xaqida so`z borar ekan, yozuvchi va dramaturg jamoat arbobi Maxmudxo`ja Bexbudi va uning ajoyib, asari “Padarkush”ni esga olish joizdir.

Bexbudi uzoqni ko`ra biluvchi, xalq xayotini, dardini chuqur anglay oluvchi, uning og`irini engil qilishin xayotining mazmuni deb bilgan arbob edi.

Xalki, Vatani uchun fidoiylarcha yashagan, mehnat qilgan Bexbudiyning umri, xayoti ham moxiyat e`tibori bilan shu xalq, shu vatan uchun fido bo`ldi.

“Agar bizning hayotimiz g`urriyat va xalq baxt – saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo`lsa, biz o`limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz” degan edi Behbudi vasiyatnomasida.

Bexbudiy birinchi navbatda muallim edi. Turkistondagi yangi maktablarning nazariyotchisi va amaliyotchisi edi.

Bexbudiy birinchilardan bo'lib, 1911 yilda "Padarkush" dramasini yozdi. P'esa tezlikda Turkistonning ko'plab shaharlari mashxur bo'lib, ketdi. Samarqand, Toshkent, Buxoro singari o'nga yaqin shaxarda saxnada o'ynaldi.

Asar 1914 yil Samarqandda qo'yilganda "Oyna" gazetasi bunday yozgan edi.

"Xalq nixoyat ko'p kelib, chipta etmagani va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi..."

Uch so'm berib, tikka turmoqqa ham rozilar bo'ldi".

"Padarkush" dramasining asosini ma'rifatparvarlik tashkil qiladi.

Jamiyatdagi barcha badbaxtlik, barcha baxtsizlik zamon talab qilayotgan ilmlarni egallamaslik tufaylidir.

Jaxolat, madaniyatsizlik sababi ham mana shunda – ilmga, ziyoga, ma'rifatga bepisandlik bilan qarashda, demoqchi bo'ladi muallif butun asar davomida.

Boyning o'g'li Toshmurod qanday odam ekani drammaning boshidayoq bilinadi. Xonada mexmonlar bo'lishiga qaramay, odobsizlarcha, na salom bor, na alik, hovliqqancha kiradi-yu, tomoshaga borajagini aytib, otasidan pul so'raydi. Otasining vaqtlitiroq qayt, yomon joylarga borma, - degan gapiga javoban Toshmurodning "ko'p gapirasiz-da" deb beandishalik va o'ta beodoblik ko'rsatishi tomoshabin yoki kitobxonda darxol salbiy munosabat uyg'otadi.

Dramada Toshmurodning eski maktabga ham yangi maktabga ham bormasligini bilib olinadi. Xolbuki, u 16 yoshlar atrofida. Demak, takasaltang. Asarning ichiga chuqurroq kirib borgan sari, aslida bolaning otaga, otaning bolaga o'zaro mos, bir-biriga mutanosib ekanini idrok etamiz.

Ota dunyoning jamiki izzatini faqat boylikda deb tushunadi.

- Boyning o'g'li Toshmurod "Padarkush" nomini olishini sababi nimada edi?

- Axir u otasini o'ldirmadi-ku?

- Ne sababki, bu badbaxt bola "ota qotili" degan nomini oldi?

Birgina javob, ya'ni "ilmsizlik"dir.

Dramatik asarni ham o'qib, saxnada ko'rib, yangi pedagogik texnologiya asosida "Aqliy xujum" metodidan foydalanish mumkin.

Dramani rollarga bo'lib xam o'qitish yaxshi ijobiy samara beradi.

1-gurux "Bojalar" guruxi (3-parda)

Boyni o'ldirish jarayoni ijro etiladi.

2-gurux "Ovsinlar" guruxi

4-manzarani rollarga bo'lib ko'rsatib beradi.

"Debat" usulida ham o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. "Bajalar" guruxi "Toshmurod ota qotili"

2. "Ovsinlar" guruxi "Toshmurod ota qotili emas".

DEBAT USULINING MAQSADI.

Debat usulining maqsadi o'quvchida fikrlash, dunyoqarashlik qobiliyatini shakllantirish, mustaqil fikr tushunchasini o'quvchilar ongiga singdirish.

Debat usulida ikkala gurux bir-birlariga qarshi fikr aytishadi.

O'zining fikriga qattiq suyangan holda raqib guruhni o'ziga ag'darish, ya'ni guruh birlashib, yagona fikr yuzaga chiqarish kerak.

Ssenariy tuzish. Adabiy asarni boshqa san`at namunalari bilan qiyoslash

"Ta`lim to`g`risidagi" davlat Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" o`qituvchilar oldiga ta`lim shaklida ham, mazmunida dam tub isloxotlar qilish vazifasini qo`ydi. Jumladan, sungi yillarda darsda noan`anaviy usullarga murojaat qilish keng kanot ezdi. Bunday usullardan biri adabiyot darslarida o`quvchilarni ssenariy tuzishga o`rgatishdir.

Ssenariy o`qituvchi tomonidan ham, o`quvchilar tomonidan ham to`zilishi mumkin. Ssenariy tuzishda o`qituvchi o`rganilayotgan asar mazmunigagina emas, birinchi navbatda, mohiyatiga o`quvchilar diqqatini jalb qiladi, ularning adabiy-nazariy tushunchalarni o`zlashtirish darajasini nazarda tutadi. Negaki, adabiyot haqida muayyan darajada bilim olmasdan, asar g`oyasi bilan hayot haqiqati o`rtasidagi aloqani farqlamasdan, tasvirlangan voqelikka yozuvchi munosabatini anglamasdan, o`qiganlarni umumlashtirish kunikma va malakasini egallamasdan turib, badiiy asar mohiyatini to`la ma`noda tushunib bo`lmaydi.

"Biz, - deb yozadi filolog va ruhshunos olim A.Leontev, - biror kishini surat oldiga o`tkazib quyilsa yoki kinozalga kiritilsa, u ko`rganlarini birdaniga va bir xilda tushunib, o`zlashtirib oladi, deb o`ylaymiz. Bu - butunlay xatodir. Tretyakov galereyasidagi suratlardan reproduksiya (nusxa) kuchirib, maktab devoriga osib quyish bilan o`quvchilarni estetik tarbiyalash bir xil tushunchalar emas. Bu kino san`atiga ham tegishlidir. (Badiiy adabiyotga ham - S.M.). Har qanday muomala-munosabatda bo`lgani kabi san`atga yondoshishda maxsus uchish taqozo qilinadi"¹.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, san`at asari yo`zaki munosabatni kutarmaydi. Uning tahlili nazariy bilimlarga tayangan holda olib borilsagina mazmun-mohiyatini tushunish, xis etish va anglash oson kechadi, natijada estetik tarbiyaviy ximmati yanada ortadi.

Adabiyot nazariyasiga oid bilimlar o`quvchilarga shunchaki nazariy ma`lumot tarzida emas, balki badiiy asar mohiyatini tugri tushunish, estetik go`zalligini xis etishga o`rgatish maqsadida beriladi. Adabiy-nazariy tushunchalarni puxta o`zlashtirgan o`quvchigina badiyat sirligini teran anglaydi.

Badiiy syujet, kompoziciya, mavzu, konflikt, g`oya, adabiy qahramon, tasviriy ifoda vositalari turrisidagi tushunchalar so`z san`atining o`ziga xos xususiyatlari yo`zasidan tasavvur berishga qaratilsa, adabiy an`analar, okimlar, ijodiy metodlar, adabiy tur va janrlar haqidagi bilimlar adabiyotning tarixiy taraqqiyoti, kardosh xalqlar adabiyotlari bilan aloqasi, ijtimoiy estetik mohiyati bo`yicha umumlashtiruvchi xulosaga tayyorlaydi.

Har bir asar keng kitobxonlar ommasini nazarda tutib yozilsa-da, uni tushunish, muallif fikrlarini qabul qilish-qilmaslik, estetik ta`sirlanish xususiylik kasb etadi.

Masalan, Alisher Navoiyning biror hikoyati yoki ruboiysini 5-sinf o`quvchisi ham, katta yoshli kishi ham o`qishi, o`rganishi mumkin. Lekin o`quvchi undan o`ziga yarasha, katta yoshli kishi o`ziga yarasha xulosa chiqaradi.

Yoki bir xil asarlar ba`zi o`quvchilarda ilik taassurot qoldirsa, ba`zilarga umuman yoqmasligi mumkin. Ammo gap u yoki bu asarning yoqish-yoqmasligi yoxud kimning qanday xulosa chiqarishida emas, uni nychogli teran tushunishi ustida ketyapti.

1 Леонтьев А. "Поэтический язык как способ общения с искусством", "Вопросы литературы", 1973, № 6. -С.101.

Ko'zlatishlar badiiy asar matni tagzaminidagi yashirin ma'noni anglashda adabiy-nazariy tushunchalar muhim dasturulamal bo'lishidan dalolat beradi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani mutolaasi buning yorqin dalilidir.

Xalqimizning o'tmishdagi maishati, turmush tarzi tarix kitoblaridan yaxshi ma'lum. Lekin syujet markazida shu xildagi ma'lumotlar to'rgan mazkur asar kitobxonga boshqacha ta'sir qiladi. Roman mutolaasi jarayonida tarix kitoblarini o'qigandagi sovukkonlik o'rnini cheksiz xayajon egallaydi: Zebi bilan Santalatning mas'ud damlari zavqlantiradi, Miryoqubning ruhiy iztiroblarga to'la kechinmalari chuqur o'yg'a toldiradi.

O'quvchi badiiy asarning so'z san'ati sifatidagi o'ziga xos qonuniyatlari yo'zasidan etarli darajada nazariy ilimga ega bulmasa, romandan olgan taassurotlari shuning bilan cheklanib kolishi tayin. U asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni, manzara-holatlarni to'la bilishi mumkin. Ammo usha voqea hodisalar, manzara-holatlarning o'zaro sababiy bog'lanishlarini, qanday g'oya ilgari surilayotgani va muallif nuqtai nazarini dastur talablari darajasida tushunib yetmaydi. Musiqa asarlariga oid notali matndan farqli ularoq, poetik matnda uning Qonunga muvofiq va tushunarli bo'lishiga qaratilgan ko'plab belgi va ishoralar, ko'rsatmalar bo'lmaydi. Lekin bu belgi-ishoralar, ko'rsatmalarning aniqligi nota yoki ieroglif belgilaridan kam emas. O'qimishli kishi ularni matnning o'zidan topgan kabi joyiga quyib uqi biladi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, adabiyot nazariyasidan bilim berish adabiy ta'limning og'riqli nuqtalaridan birini tashkil etadi.

Amalda qo'llanib kelingan darsliklarda asarlarning yaratilish tarixi, hayot materialining badiiy haqiqatga aylanishi-yo'l-yo'lakay, yo'zaki urgatiladi. Ayrim hollarda butunlay unutiladi. Badiiy asarlarda zamon va makon birligi xususida ma'lumot berilmaydi. She'r to'zilishi, tarixiy poetika xali xano'z e'tibordan chetda qolib kelmakda. Matn ustida mustaqil ishlashga deyarli urgatilmaydi. Natijada o'quvchilar yozgan mustaqil ishlarning 80 foizi darsliklardan Aynan kuchirilgan bo'ladi. Boshqacha aytganda, badiiy adabiyot namunalarini san'at asari nuqtai nazaridan baholashga qaraganda pedagogik tamoyillar asosida baholash ustivorlik qiladi. Bu esa, so'z san'atining o'ziga xos xususiyatlarini tan olmaslikka, undan chekinishga olib keladi. Natijada adabiyotning estetik tarbiyaviy mohiyati yo'qqa chiqadi.

Ko'pchilik maktablarda she'r yodlash va ifodali o'qish bilan bog'liq kiroatxonlikka e'tibor nihoyatda sust. Xatto o'qituvchilarning o'zlari ifodali o'qishning uddasidan chiqolmaydilar

Dastur va darsliklar adabiyotning tasviriy san'at, tilshunoslik, musiqa, estetika, tarix, ruhshunoslik, kino san'ati bilan bog'liq ligi etarli darajada o'z ifodasini topmagan.

Tarixiy mavzudagi asarlar tahlili tarix, ekranlashtirilgan asarlar tahlili kino san'ati bilan bog'lanmasa, ko'zlangan natijaga erishib bulmagani kabi, adabiy qahramonlarning fe'l-atvori, o'zaro ziddiyatli munosabatlari haqida so'z yuritganda etika va ruhshunoslik erishgan yutuqlarga tayanilmasa, murod hosil bo'lmaydi. Bizningcha, masalani shunday quyish kerakki, o'quvchilar nazariy bilimsiz badiiy asarni tushunish, tahlil qilish mumkin emasligini anglab etsinlar. Bu yana shuning uchun ham zarurki, xalq ta'limi o'z oldidagi kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash vazifasini bilim berish vositasida amalga oshiradi. Biolog olimlarning fikricha, bilimli kishi miyasida axborotlar kulamining kengligi bilangina emas, balki muhim masalarni mustaqil xal qilishga kodirligi bilan ham ajralib turadi.

Yoshlarni "muhim masalalarni mustaqil xal qilishga kodir" kishilar qilib tarbiyalash vatanimiz ravnakini ta'minlash uchun har qachongidan ham zarurdir.

Bunga erishishda adabiyotdan mustaqil ishlar vositasida o`quvchilarning o`quv-biluv ko`nikma va malakalarini shakllantirish muhim omillardan bula oladi. Bunday kunikma va malakalar o`quvchida faqat dars jarayonida bevosita o`qituvchi rahbarligi ostida shakllanadi deb tushunish gullik bular edi. Zero, o`quvchi o`qituvchi ishtirokida o`zlashtirgan bilimlar ustida mustaqil ishlarni bajarish orqali qayta ishlamas ekan, ular tezda xotiradan uchadi.

Adabiyotdan mustaqil ishlar asosida unga beriladigan vazifa va topshiriklar turadi. Demak, u ma`lum ma`noda o`zlashtirilgan bilim va tushunchalarni takrorlash orqali mustahkamlashga qaratiladi.

1. Ta`limning noan`anaviy usullari deganda nimani tushunasiz?
2. Ssenariy dars tushunchasini qanday izohlaysiz?
3. Badiiy asarni quproq san`atning qaysi turlari bilan taqqoslab o`rganish mumkin?

Noan`anaviy usullar – odatdagi dars usullaridan o`ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ta`lim turi.

Ssenariy dars - darslarning oldindan to`zilgan ssenariy asosida uyushtirilishi.

Mavzu: Sinfdan tashqari mashg`ulotlarni tashkil qilish

Reja:

1. Adabiy ta`limni rivojlantirishda sinfdan tashkari mashg`ulotlarning o`rni va ahamiyati.
2. Sinfdan tashqari mashg`ulotlarni hosil qilishning vositasi (to`garaklar).
3. Adabiy-ijodiy to`garaklar. Mashg`ulotlar mavzusi va o`tkazish shakllari.
4. Adib hati va ijodini o`rganishda adabiy kecha va tadbirlar o`tkazish.
5. Ko`rgazma va vistavkalar tashkil etish.
6. Adib muzeyiga sayohat uyushtirish. Adabiy ekskursiya, kino, teatr.

Adabiyotlar:

1. G.Muxamedjanova. Darsdan tashkari mashg`ulotlarda rusiyzabon o`Shuvchilarning o`zbekcha nutkini o`stirish metodikasi (5-9-sinflar misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiya. – T., 2003..
2. Q.Husanboeva. Muhammad Yusuf ijodidan bir dars. Toshkent, 2004, 3-13-betlar.
3. Matjon S. Kitob o`qishni bilasizmi? Kitobxon bilan mulokot. – T: O`qituvchi, 1993. – 114 b.
4. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustakil ishlar: O`qituvchilar uchun metodik ko`llanma. - T: O`qituvchi, 1996. – 208 b.

“Bizning ajdodlarimiz hamisha o`zoqni ko`zlab yashagan. Millat Vatan, xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning turidan joy olib, har birimizning hayotimizda, ongimizda charx urib turishi darkor.

Chinakam xalq bo`lsak, chinakam millat bo`lsak, ulkan, qudratli daryoga aylanaylik, farzandlarimizga o`zgalar xavas qiladigan ozod va obod Vatan qoldiraylik.”

Prezident I.A. Karimov.

/1997-yil 29-avgust. O`zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi To`qqizinchi sess.so`z.n./

Mazkur nutqdan kelib chiqib, ta'lim soxasini tubdan islox qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigani o'quvchi yoshlarni tarbiyalash ishida maktabdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar katta rol uynaydi. Shu sababdan ham o'qilayotgan asar yo'zasidan umumiy fikrga kelish, maslaxatlashish aniq tushuncha hosil qilishining eng yaxshi vositasi-to'garaklardir. To'garak o'quvchilarni uyushtiradi, asar ustida ishlashga urgatadi. O'qituvchi bu ishda rahbar bo'ladi.

Adabiyot va adabiy o'qish mashg'ulotlariga aloqador bo'lgan to'garaklar asosan 3 turlidir.

1. Adabiy – ijodiy to'garak.
2. Drama to'garagi.
3. Ifodali o'qish va badiiy ijod to'garagi.

Ma'lumki bu uch to'garak ham o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, adabiyotdan yanada ko'proq ma'lumot olishini, o'z ustida ishlashni, ijodga ilxomlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan mazkur to'garaklarning maqsad va vazifalari nuqtada birlashadi.

To'garakda o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan yangiliklar bilan tanishadilar. Ularni qiziqarli, jonli bo'lishiga harakat qilish kerak. To'garak a'zolarining saviya va yoshlarini albatta e'tiborga olib reja to'ziladi va har bir to'garak rahbari shu to'garakning xususiyatini aniqlagan holda ish yuritadi.

Drama to'garagiga rahbarlik qiladigan o'qituvchi: dramatik asarlarning xususiyatlarini egallagan va ma'lum darajada aktyorlik san'atidan ham xabardor bo'lishi, o'quvchilar oldida biror – bir personajning harakat va nutqini odat va xarakterini ko'rsatib bera ololadigan bo'lishi lozim.

Adabiy-ijodiy to'garak rahbarida esa adabiyot asarlarini tahlil etish, nazariy bilim berish va ijod ishidan ham xabardor bo'lsa, va o'z ijodidan o'quvchilarga manzur qila oladigan bo'lsa, mazkur to'garaklar obrusi yanada oshadi. /Nuqsonsiz ifodali o'qish/.

To'garak mashg'ulotlari bir oyda, bir yoki ikki marta o'tkaziladi. Mashg'ulotlar oddiy sinfda emas, balki maktab adabiyot kabineti maktab sahnasida o'tkazilgani ma'qul. Mashg'ulot o'tkaziladigan joyning tashqi ko'rinishi ham o'quvchilar ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi / portretlar, asarlari bilan bezab./

Mashg'ulotlar mavzusini xilma-xilligi ishning mazmuniga o'quvchilarning qiziqishlariga ta'sir etadi.

Bir yillik mashg'ulot uchun to'zgan reja o'z navbatida dastur materiallari asosida adabiyot va adabiy o'qish yo'zasidan o'quvchilarga beriladigan ma'lumotni boyitish va kengaytirishda, aynika drama va adabiy-ijodiy to'garaklar ahamiyatlidir.

Adabiy – ijodiy to'garaklar

Mazkur to'garakning mashg'ulotlari 2 xil xarakterga egadir. Mashg'ulotning bir xili sinfda olingan bilimni mustahkamlash va tuldirishga, adabiy asarlar yoki ayrim yozuvchilarning ijod yo'li bilan tanishishga qaratilsa, ikkinchi bir xili o'quvchilarning mustaqil ravishda olib boradigan ijodiy ishlarini ustirish va unga rahbarlik qilish, yo'llanma berishga qaratilgan bo'ladi. Buning yaxshi tomoni shundaki, o'quvchilar bir mashg'ulotda biror yozuvchinig asarini tahlil qilsalar, ikkinchi mashg'ulotda xuddi shu asosda to'garak a'zolari tomonidan yozilgan she'r va hikoyalarni tahlil qiladilar. Olingan

nazariy bilimlar va asarning badiiy xususiyatlari, ma'naviy va madaniy san'atlar haqida bilimlari yo'zasidan hosil qilgan malakalarini o'z asarlari muhokamasiga ham tatbik qiladilar. Xuddi shu yusinda o'tkazilgan mashg'ulot natijasida o'quvchilarda adabiy asarlar o'qishga xavas uygonadi.

To'garakning vazifasi va maqsadi esa o'quvchilarning qiziqishini tarbiyalashdan ularga sistemali ravishda ko'rsatma berib borishdan iborat bulmogi lozim.

Mustaqil ijodiy ishlar albatta nuksonli bo'ladi. Bu ishda juda extiyot bulmok kerak. Rahbar to'garak a'zosini bezdirib kuymasligi, tahlil va tuzatish jarayonida bosiklik bilan, ilmiy nuqtai nazardan yondoshmogi lozim.

Ijodiy mustaqil ishlarni tahlilda kichiq xajmli asarlarni ayniqsa she'rlarni doskaga yozish, va doskada tushuntirib berish lozimdir. Umumiy muxokada to'garak a'zolari o'z fikrlarini aytadilar. O'qituvchi rahbarligida shu ish nuksonlarini tuzatib chiqish, kelgusida qanday yozish yo'llarini ko'rsatish, tahlil qilingan asarlarni gazeta va jurnallarda nashr qildirish yo'llari kurib chiqiladi. / Taqrizlar yozdir. / tinglash va muhokama yakunlanadi, yutuq va kamchiliklarni tuzatish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Drama to'garagi – o'quvchilarning adabiyotga, ayniqsa dramatik asarlarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash vositasidir.

Xususiyatlari: to'garak a'zolari oldiga quyiladigan talablarning xarakteridan kelib chiqib, to'garak a'zolari adabiyot nazariyasi, badiiy asarni tahlil qilish yo'llari, janrlar va ularning xususiyatlari, to'zilishi va ishlari bilan tanish bo'lishlari lozim. To'garakka qiziquvchi xavaskorlar to'planadi. Mashg'ulotlar sinfdan va sinfdan tashqari uqiladigan materiallar asosida mashg'ulot rejasi to'ziladi.

To'garakning eng muhim bosqichlaridan biri asarni sahnaga quyishga tayyorgarlik davridir. Bu davrda o'quvchilar asarning maqsadi, badiiy xususiyati va uni o'qish texnikasi bilan tanishadi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsa repertuardir. Har qanday sahna asarlarini emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, o'quvchilarda mehr-shavkat, muhabbat, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydigan, ularning hayotlariga yaqin to'rgan asarlarni, o'quvchilarga tanish bo'lgan yozuvchilarning asarlarini / hikoya, roman, povest, x.z./ ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Drama to'garaklarda mashg'ulotning yana bir turi adabiy montajlardir. Tanlangan mavzuni yoritish uchun turli asarlardan kerakli epizodlarni, she'riy parchalar, ashulalar kiritiladi.

A.Navoiyning yoshlik yillari mavzusida adabiyot montajda shu davriga oid parchalar, she'r, tarixiy manba', memuar va vaqtli matbuot materiallaridan foydalanish mumkin.

To'garak a'zolari nazariy malakani oshirish uchun ko'rgan kino, teatri haqida, aktyorlar mahorati haqida muhokama va mo'zoqaralar utiladi.

Bu ish ularning qiziqishlarini yanada oshiradi.

Ifodali o'qish to'garagi – asosiy maqsadi o'quvchilarni ifodali o'qish va badiiy hikoyalashga, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon anglatishga o'rgatishdan iborat. Reja to'ziladi va shu asosda uqiladigan asarlar ruyxati aniqlanadi, o'qish texnikasi va asarlar mazmunini tushunishga yordam beruvchi nazariy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtiriladi.

Adabiy kechalar odatda barcha to'garaklar kurigi hisoblanadi, To'garak kuchi ma'lum bo'ladi. Doklad mo'zoqarasi badiiy qism. /adabiy montaj/ inssnirovkalar, xotiralar, hikoyalar, deklomasiya, bino, bezak.

Adabiy vistavkalar. /Yozuvchi, shoir, kitoblar haqida/.

Yozuvchining hayotiga oid boʻlgan eksponatlar kuyidagicha:

- 1) Yozuvchining portreti, oila aʼzolari, hayotining ayrim momentlari kurs ilyustratsiyalari.
- 2) Yozuvchining tarjimai holiga yoki yozuvchining sayoxatlariga oid karta.
- 3) Yozuvchi va uning zamondoshlari.
- 4) Oʻquvchilari ishlagan rasmlari.
- 5) Asar yoʻzasidan ishlangan maketlar kuinishi.
- 6) Sinxronik tablica ijb. siyosiy hayot va davrning adabiy harakati bilan bogʻlangan holda yozuvchining ijodiy yoʻli.
- 7) Asarning obrazi va kompozitsiyasining oʻzaro nisbatini kurs. grafik.
- 8) Asarning yaratilish tarixi.
- 9) Poetik tilning tahlil naʼmunalari.
- 10) Yozuvchining adabiy guruhlar urt.tutgan oʻrni.
- 11) Turli davradagi turli sinflar vakillarining yozuvchiga bergan baholari.
- 12) Yozuvchining ijodi va u yashagan zamondagi rasm sanʼati.
- 13) Yozuvchining asarlari musiqada.
- 14) Asarlari teatrda va kinoda.
- 15) Yozuvchilarning sanʼatlari va kimmatli fikrlari.
- 16) Yozuvchi haqida nimalar oʻqish kerak.
- 17) Asosiy tanqidiy adabiyot namunasi.
- 18) Bizning davrda yozuvchining ijodiga berilgan baho.

Vistavkalar aniq kishiga taʼsir qiladigan, tassurot qoldiradigan boʻlishi kerak. Bu juda maʼsuliya ish. Tayyor bulgach, ochiq deb eʼlon qilinadi.

Adabiy ekskursiya, tashkil etishdan oldin, oʻqituvchi asosiy maqsadni belgilab oladi. Mas.: YI-YII sinflarda biror yozuvchi tarjimai holini utgandan keyin, shu bobni mustahkamlash uchun moʻzeyga ekskursiya uyushtirishi mumkin. Koʻzatish maqsadga maʼlum darajada pedagogik process bilan ham bogʻlanadi :1. Utilgan mavzularni mustahkamlash.

1. Sinfdan tashqari mashgʻulotlarning maqsad va vazifalarini qanday tushunasiz?
2. Sinfdan tashqari mashgʻulotlarda qanday toʻgaraklar tuzish mumkin?
3. Adabiy ekskursiya kaerlarda oʻtkaziladi?

Sinfdan tashqari mashgʻulotlar – adabiy ijodiy toʻgaraklar oʻtkazish, oʻquvchilarni adabiy ekskursiyalarga jalb qilish va x.k.

Adabiy ekskursiya – oʻquvchilarni yozuvchilar yashagan joylarga, ularning uy moʻzaylariga olib borish yoki ular haqidagi telefilm, kinofilmlarni birgalikda tomosha qilish.

Milliy maʼnaviyat, milliy istiShlol \oyalari tarbiyasini yuShori saviyada tashkil etishda darsdan, maktabdan tashShari ishlarning ahamiyati benihoya katta. AyniShsa, turli tadbirlar, xususan adabiy kechalar chogʻida soʻzlanadigan maʼruzalarni, oʻShuvchilarning chiShishlarini mazmunan boy, badiiy yuksak saviyada uyushtirish muhim oʻrin tutadi. Bunday tadbirlarni uyushtirish uchun tuziladigan scenariylarning pishik boʻlishiga eʼtiborni kuchaytirish talab etiladi¹. Bugungi kunda Oybekning hayoti va ijodiga bagʻishlangan tadbirlarni oʻtkazish keng Shuloch yoydi. Ushbu tadbirlarning scenariysi muayyan izchillikda amalga oshiriladigan ishlarni oʻz ichiga oladi. Birinchi navbatda tadbirdan oldin oʻShuvchilar ishtirokida koʻrgazma

¹ Г.Мухамеджанова. Дардан ташшари машʼулотларда русийзабон ўшувчиларнинг ўзбекча нутцини ўстириш методикаси (5-9-синфлар мисолида). Пед.фан.номз. ... диссертация. – Т., 2003. – Б. 89-90.

tashkil etish va adabiy ekskursiya uyushtiriladi. Ko`rgazma ham, adabiy ekskursiya ham o`Shuvchilarning fikrlash doirasini yanada kengaytiradi, kizikuvchanligini oshiradi. Adabiy kecha esa o`quvchilarning adib ijodi yuzasidan yakunlovchi tadbir sifatida o`tkaziladi.

Tadbirda doir ko`rgazmada sevimli adibimiz Oybekning hayoti va ijodiga oid bo`lgan materiallar kuyidagicha joylashtiriladi:

Oybekning portreti, oila a`zolarining rasmlari, adib hayotidan ayrim lavhalar.

Yozuvchining tarjimai holi, farzandlari hakidagi ma`lumotlar, adibning adabiy merosi.

Oybek va uning zamondoshlari H.Olimjon, Zulfiya, F.Fulom, Maksud Shayxzoda, Muxtor Avezov va boshkalar.

Asar yuzasidan ishlangan maketlar ko`rinishi.

Zarifa Saidnosirova chizgan suratlar.

Sinxronik jadval: Oybekning ijtimoiy-siyosiy hayot va davrning adabiy harakati bilan bog`langan holda yoritilgan ijod yo`li.

Oybekning asarlari sahnada, kino olamida. Dastlabki “Qutlug` kon” videofil`mida Yo`lchi rolida Tesha Mo`minov, Gulnor rolida Nasiba Usmonova, Mirzakarimboy rolida Po`lat Saidkosimov, Gulsumbibbi rolida Sora eshonto`raeva, Yormat rolida Nabi Rahimov kabi san`atkorlar ijrosidan lavhalar.

“Navoiy” videofil`midan ham xuddi shunday namunalar beriladi. Bunda Navoiy rolida Yokub Ahmedov, Badiuzzamon rolida Yodgor Sa`dievlarning ijrosi Oybekning ijodiy mahoratini o`quvchilar ko`zi oldida yanada yukori pog`onaga ko`tarib, tomoshabinlarga Oybek asarlarini keng doirada tanitishga yordam beradi. Yukoridagi videofil`mlardan lavhalar ko`rgazma zalida adib ijodining yorokin namunalari sifatida fayz berib turadi.

Oybek yaratgan asarlar ko`rgazmasini ham tashkil etish mumkin.

Talabalar Oybek hakida yaratilgan asarlar ko`rgazmasi orqali adib ijodi yuzasidan olib borilgan izlanish natijalari bilan tanishadilar.

Ko`rgazmalar kishiga ta`sir kiladigan, o`chmas taassurotlar koldiradigan bo`lishi kerak. Bu juda mas`uliyatli ish bo`lib, katta mehnatni talab kiladi. Ko`rgazma tayyor bo`lgach, u ochik deb e`lon kilinadi.

Hozirgi kungacha Oybek ijodiga bag`ishlab o`nlab dissertაციyalar, monografiyalar, yuzlab makolalar yozilgan. Ular ichida H.Yokubovning “Foyaviylik va mahorat”, “Adibning mahorati”, M.Qo`shjonovning “Oybek” romanlarida xarakter yaratish san`ati”, “Oybek mahorati” hamda N.Karimovning “Ajoyib kishilar hayoti” seriyasidan “Oybek” nomli kitoblarini ko`rsatish mumkin.

Oybek hayoti va ijodi yuzasidan darsdan tashkari tadbirlar o`tkazilgandan so`ng ekskursiya uyushtiriladi, shuningdek, ko`rilgan fil`mlar, spektakllar, adib kalamiga mansub bo`lgan asarlardan olingan taassurotlar asosida rasmlar ko`rgazmasi tashkil kilinadi.

Kitoblar ko`rgazmasini kuyidagi kabi turli xil ruknlar ostida tashkil etish mumkin:

1. Oybek yaratgan she`riy asarlar olami (lirik she`rlar to`plamlari asosida), dostonlari.

2. Oybek o`zbek nasri ustasi (hikoya, Shissa, roman).

3. Oybek – tarjimon (tarjima asarlari).

4. Oybekning ilmiy qarashlari (Navoiy ijodi yuzasidan olib borilgan tadShiShotlari bo`yicha).

Shuningdek:

1. “O`zbek she`riyati durdonalari”.

2. “Nasriy asarlarni o`qing”.

3. “Oybek asarlari rus tilida” (5 jildlik nashri).

Shu kabi ko`rgazmalar Oybekning tug`ilgan kuni sanasi munosabati bilan tashkil kilinishi mumkin.

Oybek tavalludi munosabati bilan *devoriy gazetalar* chikarish, ularga ilova kilib fotogazeta ham tayyorlash mumkin. Unda Oybek hayoti va ijodi yuzasidan to`garakda tayyorlangan ishlardan lavhalar beriladi, Oybek hayoti va ijodi yuzasidan tanikli kishilar bilan uchrashuvlar (masalan, adabiyotshunos olim Naim Karimov, adibning o`g`li Bek Toshmuhammedov kabi), ekskursiyalar, ayrim diqqatga sazovor voqealarga bag`ishlangan makolalar chikariladi. Adib nomi bilan bog`liSh Termiz davlat pedagogika instituti binosining rasmi yoki adib faoliyat ko`rsatgan tashkilotlar suratlari joylashtirilishi mumkin.

Fotogazeta fotosuratlar hamda ularga tegishli sharhli yozuvlardan iborat bo`ladi. Fotomontaj chikarish uchun esa illyustrativ material sifatida jurnallar, otkritkalar, plakatl va boshka turdagi fototasvirlardan foydalanish mumkin. Bunday rasmlar talabalarning adib ijodiga doir olgan bilim va malakalarini yanada mustahkamlaydi.

Adabiy ekskursiya tashkil etishdan oldin o`qituvchi asosiy maksadni belgilab oladi. Oybek hayoti va ijodini o`rgangandan keyin Oybek uy muzeyiga ekskursiya uyushtirish mumkin.

Hovlida joylashgan Oybek haykalining o`ziga qarab adibning hayot yo`lini esga olish, hatto Oybekning shu holatini yorkin bo`yoklarda tasvirlab berish ham o`Shuvchilarni hayajonga soladi. Ayniksa, adibning og`ir kasalga chalingan damlari xuddi shu hovlida o`tgan, u gapirolmasdan, fakat o`ylari bilan shu hovlini qancha marotaba aylangan kezlarini his etish murakkab kechinmalar tarzida kechadi. Bu o`rinlarda yirik adabiyotshunos olim Naim Karimovning “Oybek” asarida keltirilgan ushbu she`rni eslash o`rinlidir:

Xastamen... fikrga, tuyg`uga to`lib -
Oy menga hamkadam – sekin yuramen.
Sog`aysam bir kuni yozamen to`yib,
Hislarga kalbimni ko`shib yozamen.

Kechalar yururmen telbaday horib,
Boshimda oy borur – menga hamkadam,
Xayollar uchadi mash`alday yonib,
To`yib yozajakman bir kun sog`aysam...

Naim Karimov aytganidek: “Bu ijodga behad tashna, ammo og`ir va uzok yillar davomida ijod etish baxtidan mahrum bo`lgan kalbning sokin faryodi edi”¹. Bunday ma`lumotlarni Zarifa Saidnosirovaning xotiralari asosida Oybekning xarakteri xususidagi, oila a`zolari hakidagi ma`lumotlarni bayon etish mumkin. Oybekning insonlarga, ayniksa, bechorahol kambag`al oilalarga kilgan yaxshiliklarini eslash ham o`tganlar ruhini shod kiladi va o`quvchilarga ibrat namunasi bo`lib xizmat kiladi. Oybekning o`zi aytganidek:

Bulutday kezsa xalk ichida shoir,
Xotirasi kuyosh kabi koladir.

Oybek haykaliga gullar ko`yib, shoir hakidagi xotiralarni eslash bilan birga she`rlaridan namunalarni tinglash o`quvchi ruhiyatiga kuchli ta`sir etadi va bir umrlik taassurotlar uyg`otadi.

Shoir uy muzeyi tomosha kilinadi. Bunda o`qituvchi Oybek hakidagi kizikarli ma`lumotlarni etkazib beradi. Adib yaratgan asarlar hakida, bularning ba`zilari tufayli unga qanchalar malomat toshlari yog`ilgani to`g`risida so`zlanadi. Lekin o`sha asarlar adib ijodining yutug`i hisoblanib, yukori baholangan. Shulardan biri “Navoiy” romanidir. Oybekning umr

¹ Наим Каримов. Ойбек. Тошкент, 1985. 167-бет.

yoʻldoshi Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” kitobida keltirishicha: “U butun umri boʻyi Navoiy hakida oʻyladi, Navoiy hakida yozdi. Uning bu satrlari bejiz bitilmagan:

Tarix soʻkmoklari izimdan choʻtir,
Har bir xon shivirlar: “Bir lahza oʻtir...”

“Qushlar tili” piri yurakda tilak,
Izlayman marvarid – koʻlimda elak.

Oybek butun umri davomida ana shu elak bilan Navoiy olamidan marvaridlar terdi”.

Shu kabi maʼlumotlar adib kutubxonasini kuzatish jarayonida joʻshib hikoya kilinadi.

Sayohatdan kaytgandan keyin talabalarning u hakdagi taassurotlari tinglanadi yoki taassurotlari asosida yozma topshiriklar beriladi. Bunda insho mavzusi berilib, Oybek tavalludiga bagʻishlangan tadbirda “Insho tanloviga” yoziladigan insholar koʻrigi oʻtkaziladi. Tanlov natijalari tadbir oxirida eʼlon kilinadi.

Oybek asarlari boʻyicha sahnalashtirilgan spektakllar, videofilʼmlar oʻquvchilar bilan birga borib koʻrilsa, koʻpchilikning ulardan bahramand boʻlishiga va asar yuzasidan mushohada yuritishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Oybekning hayoti va ijodining turli kirralari boʻyicha viktorinalar, bellashuvlar, bahs-munozaralar oʻtkazish ham maksadga muvofikdir.

Bunday sinfdan tashkari ishlarni har bir adib yoki mutafakkir hayoti va ijodi yuzasidan tashkil etish mumkin.

Ayniksa, ilm maskanlarida “Maʼnaviyat kunlari”ning tashkil etilishi ham oʻquvchi-talabalarni ulardan yiroklashib ketgan sahna asarlarini, hali koʻrib ulgurmagan, vakt topmagan shoir va adiblarning uy-muzeylarini, maʼnaviyat kadamjolarini tomosha kilishga undab turadi.

Xullas, kitob oʻqish kamaygan bir sharoitda tanikli yozuvchi va adib Oybekning hayoti va ijodiy faoliyati hakida oʻquvchi-talabalarda keng tasavvur hosil kilish, shu orqali ularni milliy maʼnaviyat, milliy istiklol gʻoyalari ruhida tarbiyalash ishlarida oldindan puxta tuzib olingan scenariy asosidagi darsdan, maktabdan tashkari tashkil etiladigan tadbirlar, xususan, adabiy kecha, ekskursiyalar, koʻrgazmalar muhim oʻrin tutadi.

Tayanch soʻzlar: Scenariy, koʻrgazma, adabiy kecha, insho tanlovi, aktyor, illyutrativ materiallar, muzey, sayohat, xotiralar,

Savol va topshiriklar:

1. Sinfdan tashkari mashgʻulotlar qanday tashkil qilinadi?
2. Oybek hakidagi tavsiyalardan foydalanib oʻzingiz xohlagan adibingiz hakida maʼlumotlar toʻplang.
3. Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligiga bagʻishlab tadbir scenariysi tayyorlang.
4. Abdulla Qahhor uy-muzeyiga sayohat tashkil kiling.

Mavzu: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining adabiyot darslarida kompyuterdan foydalanish yoʻllari.

Reja:

- 1 Adabiyot oʻqitishda kompʻyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari
- 2 Adabiyot boʻyicha taʼlimiy-alektron ishlanmalar tayyorlashga qoʻyiladigan talablar
- 3.Oʻquvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda kompʻyuter texnikasidan foydalanish usullari.
4. 7- sinfdan Zulfiya hayoti va ijodini kompyuter texnologiyasi asosida oʻrganish

Adabiyotlar

1. Internet yangiliklari. Nizomiy nomidaga TDPU Axborot texnologiyalarni va masofaviy o`qitish markazi axborotnomasi. - Toshkent. 2002-2004 yillar. 1-24-sonlar.
2. Yusupova Sh.J. Ona tili ta`limi samaradorligini oshirishda ilg`or psdagogik texnologiyalarni joriy etish (noan`anavmiy usullar va komm`yuterdan foidalashish). - Toshkent, 1998.
3. Qo`shnazarova M. Ona tili mash`ulotlarida komp`yuterdan foydalanish. // Til va adabiyot ta`limi. – 2001. - №5. .
4. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa akciyadorlik kompaniyasi. 2000.
5. Alimuhamedov. R. Adabiyot o`qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta`limi J. – 2008. - №3.
6. Fozilova X. O`quvchilarga Zavqiy ijodini zamonaviy texnologiya asosida o`rgatish. Til va adabiyot ta`limi J. – 2005. - №5.
7. Mirkamolova B. O`quvchilar bilimini kompyuter yordamida test sinovlaridan o`tkazish. "Til va adabiyot ta`limida yangi pedagogik texnologiyalar." Mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman mater. Toshkent TDPU 2006.

Keyingi paytlarda ta`lim jarayonida ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim bosqichga kirdi. Axborot texnologiyalaridan ta`lim jarayonida foydalanish o`quvchilarning mustaqil fikrlashlari va ijodiy tafakkurini kengaytiradi.

Ta`lim jarayonida komp`yuter texnikasidan foydalanish xususida tadqiqotchilar har xil fikr – mulohazalar bildirishgan. Jumladan, tadqiqotchi P.I.Serdyukov o`zining «Chet tili ta`limida eHM lar» masalasida o`quvchilar kommunikativ faoliyati (o`quvchining fikr bildirish va axborot olish imkoniyati va faoliyati) haqida so`z yuritib, bildirib, quyidagilarni tavsiya etadi: komp`yuter texnikasi o`quvchilarning kommunikativ faoliyatini modellashtiradi, ijodiy faoliyatini kengaytiradi, faollashtiradi; ta`limning individuallashtirish va differenciallashtirish xususiyatlarini namoyon qiladi, xususan o`quvchilarning ta`limdagi aloqa-aralashuv faoliyatini ta`minlaydi, topshiriq va javob «kanali» bo`yicha qobiliyatlarini shakllantiradi. Tadqiqotchining fikricha, o`quvchi komp`yuter texnikasi vositasida savol-topshiriqlar ustida ishlaganda bilimlarni sinab ko`rishdan tashqari mustaqil fikrlashga doir ko`nikma va malakalari ham shakllanadi. Natijada o`quvchilar bilan ob`ektiv nazorat turlarini to`la amalga oshirishga muvaffaq bo`linadi. Shu bilan birga, o`quvchilarning boshqa o`quv yurtlari bilan aloqalarini yo`lga qo`yish imkoniyati tug`iladi.

Tadqiqotchining tavsiyalarini adabiyot darslarida to`la qo`llash imkoni bo`lmasligi mumkin. Lekin bu tavsiyalarda juda ham muhim optimal variantlar bor. Ulardan foydalanishda, albatta, o`qituvchining tavsiyasi va ko`rsatmalari bo`lishi zarur.

Chunki aynan ana shu tavsiya va ko`rsatmalarda o`qituvchining ijodkorligi, o`quvchilar oldidagi mas`uliyati, fidoyiligi namoyon bo`ladi.

Tadqiqotchi e.L.Nosenkoning fikricha, komp`yuter texnikasi quyidagicha muhim ta`limiy vazifalarni bajarishi zarur:

a) ta`lim mazmunini tanlash zaruriyati. Ta`lim mazmuni eskicha bo`lib, dastur talabi yangicha, nazorat turi esa reyting tizimida bo`lsa, albatta, o`quvchining mustaqil fikrlash faoliyatiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Tadqiqotchining muammoga ob`ektiv yondoshishi shundan iboratki, o`quvchi ta`lim jarayonidagi didaktik masalalarni eskicha qolipda emas, yangicha metod va uslublarda bajaradi;

b) o`qituvchining savol-topshiriqlariga og`zaki yoki yozma javob bermaydi,

didaktik manba (darslik)dagi materialni ko`r-ko`rona yodlamaydi, balki komp`yuter texnikasi uchun tuzilgan maxsus dasturlar asosida o`zlashtiradi.

Adabiyot darsligidagi savol-topshiriqlar komp`yuter xotirasiga kiritilgach, o`quvchi «ha» yoki «yo`q» javobini bermaydi. Aksincha informatika va matematika darslarida olgan bilimlaridan ijodiy foydalanib, muayyan dasturlar asosida berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Dasturlar bilan ishlash yuzasidan o`quvchining o`z tushunchasi bo`lishi kerak;

v) belgilangan maqsadga erishishda komp`yuter texnikasida foydalanadigan dastur va dasturlash jarayoni etakchilik qiladi.

Komp`yuter ta`limi bo`yicha tadqiqotchilardan E.A.Masliko komp`yuter texnikasidan foydalanganda modellashtirish, motivaciya bo`yicha o`quvchining fikr va bilim doirasini faoliyat darajasiga etkazishni tavsiya etadi.

Komp`yuter texnikasi uchun berilgan topshiriqni bajarishda o`quvchining etarli bilimi bo`lmasa, shubhasiz, o`rganilishi zarur bo`lgan material modellashtirilmaydi. O`quvchi komp`yuter texnikasiga savol-topshiriqlar bo`yicha aniq va to`g`ri komanda ham berolmaydi, etarli ma`lumot ham ololmaydi.

Demak, o`quvchida modellashtirish bo`yicha aniq ma`lumot yoki tasavvur bo`lmasa, komp`yuter texnikasiga murojaat qilishning hojati bo`lmaydi.

Ta`limda motivaciya masalasi faqat psixologiyaning vazifasi deb kelinar edi. Ta`lim jarayonidagi islohotlar, ta`limning yangi bosqichga ko`tarilishi har bir fanda o`zining yo`nalishi bo`yicha motivaciya jarayoni mavjudligini taqozo etadi.

Tadqiqotchi Malohat Qo`shnazarova «Til va adabiyot ta`limi» jurnalida e`lon qilgan «Ona tili darslarida komp`yuterdan foydalanish» maqolasida boshqacha bir fikrni bildiradi. Unda ko`rsatilishicha: «... Komp`yuter orqali, jumladan, o`quvchilar so`z boyligini oshirish, so`zdan fikr ifodalashda o`rinli foydalanishni o`rgatish mumkin».

Nazarimizda, komp`yuter ona tili darslarida o`quvchilarning so`z boyligini oshirishda etakchi bo`lmaydi. Buning o`rniga o`quvchilarning so`z boyligini oshirishda motivaciya, modellashtirish usullaridan foydalanish masalasi ilgari surilganda o`rinli bo`lar edi.

Tadqiqotchi o`z maqolasida quyidagicha bir qancha mashq namunalarini misol tariqasida keltiradi.

«1-mashq. Keltirilgan so`zlarning ichidan avval sinonimlarni, so`ngra antonim va omonimlarni toping:

tez, kul, xunuk, bashara, osmon, yuzsiz, ko`r, tush, yaqin, chiroyli, achchiq, uzoq, o`t, tugma, samo, aft, fazo».

Afsuski, na mazkur mashqni, na shu tipdagi boshqa mashqlarni bajarish bo`yicha dasturlash masalasi, motivaciya, modellashtirish yuzasidan hech qanday tavsiya berilmaydi. Vaholanki, bu xildagi mashqlarni bajarishda dasturlash uchun materiallarni komp`yuterda qayta ishlash taqozo qilinadi.

Bizningcha, berilgan mashq yuzasidan sinonimlar, antonimlar va omonimlarni tasniflash bo`yicha dastur tuzib komp`yuterga komanda berilishi zarur. Shundagina komp`yuter topshiriqni bajaradi. Komp`yuter o`quvchiga topshiriq bermasdan, o`quvchi komp`yuterga topshiriq berishi zarur.

Nazarimizda, mazkur mashq turi juda ham to`g`ri tanlangan bo`lib, uni bajarishga qaratilgan dastur va modellashtirish to`g`ri yo`lga qo`yilsa, juda ham yuqori ko`rsatkichga erishilishi shubhasizdir.

Tadqiqotchi komp`yuter texnikasi uchun quyidagi ikkinchi bir mashq turini ham

tavsiya qiladi:

«2-mashq. Quyidagi savollarning javoblari bilan boshqotirmaning katakchalarini to'ldiring:

1. Xo'jalik ishlarining hisob-kitobini olib boruvchi kishi.
2. eng muhim ijtimoiy fanlardan biri.
3. Muloqot quroli.
4. Davlat boshqaruvidagi asosiy hujjat.
5. eng ulug' zot.
6. Rang.
7. Erga ishlov beruvchi asboblardan biri.
8. Qadimgi eng oddiy jazoni ijro etuvchi.
9. Bir davlatning ikkinchi davlatdagi vakolatxonasi.
10. Buyumga ishlov beruvchi asbob.
11. Odam organizmini o'rganadigan soha.
12. Achinganda aytiladigan so'z.
13. Suv solinadigan idish.
14. eng muhim ozuqa.
15. Norasmiy leksik qatlam.
16. Tilshunoslikning bo'limi.
17. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari majmui».

Komp'yuter texnikasidan «oqilona foydalanish» shiori ostida shaklni sal-pal o'zgartirib mazmunan shu xilda eskicha harakat qilish ta'limdagi innovacion va axborot texnologiyalar mazmunini buzishdan boshqa narsa emas.

Birinchidan, har ikkala mashqning mazmuni qaysi sinf o'quv dasturi va davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha ekanligi mutlaqo ko'rsatilmagan.

Ta'lim tizimida har qanday yangilik bo'lmasin, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Davlat ta'lim standartlari» hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari biz uchun asosiy dasturulamal bo'lmog'i lozim. Chunki «mashg'ulotlarda komp'yuter texnologiyalarini qo'llash dars jarayonini aniq rejalashtirishni taqozo etadi».

Ko'rsatilgan adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, metodist M.Qo'shnazarova komp'yuter texnikasi va uning funktsional imkoniyatidan ancha uzoqda turadi. Shuning uchun ham maqolada keltirilgan topshiriqda aniq va konkret bir mulohaza bayon qilinmagan.

Ikkinchi topshiriqda berilgan savol mazmuni ham aniq va konkret emas: «eng muhim ijtimoiy fanlardan biri». Bizningcha, ijtimoiy fanlarning muhim bo'lmagan sohasi yo'q. Hozirgi davr talabi bo'yicha barcha ijtimoiy fanlar muhim hisoblanadi.

Uchinchi topshiriqdagi talabda ham ko'rsatkich va tushuncha bor: «Muloqot quroli». Muloqotda qurol bo'lmaydi, aksincha, vosita bo'ladi.

To'rtinchi topshiriq sharti ham yuqoridagilardan farq qilmaydi: «Davlat boshqaruvidagi asosiy hujjat». Davlatning boshqaruv va hokimiyat organlari o'z yo'nalishlarida chiqarilgan hujjatlar asosida boshqariladi. Oliy Majlis sessiyasi qonunlar qabul qiladi va bu qonunlarni so'zsiz bajarish talab etiladi.

Demak, M.Qo'shnazarova tuzgan savol-topshiriqlarda aniq va konkret motiv yo'q. Motivlovchi va motivlanuvchi asos bo'lmasa komp'yuter texnikasi o'z dasturi yuzasidan hech qanday topshiriqni bajara olmaydi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarining quyi sinfidan yuqori sinfigacha «O`zbekiston Respublikasi Konstituciyasi» fani o`rgatiladi. «O`zbekiston Respublikasi Konstituciyasi»da davlatni boshqarish yuzasidan barcha hujjatlarning nomlari, ularning funktsional xususiyatlari haqida to`liq ma`lumot berilgan.

Demak, komp`yuter texnikasi uchun material tanlanganda yoki savol-topshiriqlar tuzilganda motivlovchi va motivlanuvchi asos aniq bo`lishi kerak.

Bu asos va ko`rsatkichlar mavhum bo`lsa komp`yuter texnikasi dasturiy topshiriqlarni aniq bajarmaydi.

AQSh olimlarining tadqiqotlari bo`yicha ta`lim jarayoniga axborot va komp`yuter texnikasini joriy etish yuzasidan bir qancha tavsiyalar berilganki, ta`lim jarayonida ulardan foydalanish o`quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi¹. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Mashina ta`minotining maqsadga muvofiqligi. Ta`lim jarayonida «Yamaxa», «Bazis», «Turbo-Paskal» va boshqa turdagi elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish yo`nalishlari.

Grafik simvolikani verbal imkoniyatlarga almashtirish imkoniyati bo`lsa eHMning boshqa turlaridan ham foydalanish mumkin.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim hamda Xalq ta`limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan direktiv hujjatlarda ta`lim jarayonida mul`timedia kompleksidan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Dasturlardan foydalanish yuzasidan yo`riqnomalarning aniqligi va maqsadga muvofiqligini ta`minlash. Yuqorida ko`rib o`tilgan maqola va manbalardagi ayrim nuqsonlar ham mana shu ikkinchi yo`nalishdagi talabning noto`g`ri qo`yilishi bilan bog`liqdir.

3. Har qanday sharoitda o`quv-biluv ko`nikma va malakalarni egallash bilan bog`liq talablarni dasturga kiritish.

4. Javob reaksiyalarining aniqlik darajasi. Agar o`quvchi dastur talabi bo`yicha kiritilgan material yuzasidan bajariladigan ish faoliyatida mashinaga aniq va konkret komanda bera olmasa, maqsadga erishib bo`lmaydi.

5. Nazorat va yo`llovchi vositalar imkoniyatlarining maqsadga yo`naltirilganligi ham komp`yuterdan foydalanishning asosiy yo`nalishlarini belgilaydi. Agar o`quvchi nazorat va yo`llovchi vositalar imkoniyatlaridan to`liq foydalana olmasa, axborot texnologiyasi asosidagi ta`lim samarasiz chiqadi.

6. Dastur qismlarining foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi. Agar o`quvchiga dasturning hamma tarmog`i bir paytning o`zida berilsa, u barcha savol-topshiriqlarni bajarish yuzasidan to`liq ma`lumotga ega bo`lmaydi.

7. O`quvchi o`z ishlarining borishi to`g`risida axborot berib turishi zarur.

